

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY – METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIV ERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

---

---

**“BIOTEXNOLOGIYA MASHINA VA JIHOZLARI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘QUV USLUBIY MAJMUUA**

**Toshkent 2022**

Mazkur o‘quv-uclubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:**

**Ibragimov SH.B.** - Toshkent davlat texnika universiteti “Biotibbiyot muxandisligi ” kafedrasida dotsenti

**Taqrizchilar:**

**Isaxanov Z.A.** –O‘zR FA U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalar instituti katta ilmiy xodimi, f.-m.f.n

**Tursunov M.A.** – k.f.-m.n. dots. Kafedra “Elektron apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyasi” TGTU

O‘quv-uclubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrda 4 sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>102</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>137</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>139</b>
<b>VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>142</b>

# I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi o‘quv dasturi Biotibbiyot mashina va jihozlarning hozirgi holati, muammolari va ularning rivojlanish istiqbollari masalalarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishni o‘zida qamrab olgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Modulni o‘rganishdan **maqsad** tinglovchilarni biologik va tibbiyot ob’ektlarini boshqarish jarayonlarini zamonaviy usullari bilan tanishtirish, ularda tibbiyot sohasiga zamonaviy aniq fanlar va informatsion texnologiyalar yutuqlarini tadbiq qila olish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

**Modulning vazifasi** – tinglovchilarga: tibbiyot va biotexnologiya mashina va jihozlarni ishlash prinsipini, sog‘liqni saqlash tizimida tibbiyot texnikasi va texnologiyasini o‘zlashtirish, foydalanish va bilishdan iborat.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**Kutilayotgan natijalar:** Tinglovchilar "Biotibbiyot mashina va jihozlari" modulini o'zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar:

### **Tinglovchi:**

- o'lchash asboblari turlarini;
- analogli va raqamli o'lchash asboblarini;
- analogli dicpleylarning afzallik va kamchiliklarini;
- biotexnologiyada robotlar. RTTKlarga kuyiladigan umumiy talablarni;
- tibbiyot va biotexnologiya elektron texnikasini;
- ayrim rentgen kompyuter tomograflarining vazifalari va acociy texnik imkoniyatlarini;
- ob'ektdan olinayotgan axborotlarni tasvirini;
- maxsus texnologik jihozlarni texnikaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini;
- elektron qurilmalarning o'lchash xatoliklarini;
- o'lchash acbobining barqarorligini;
- o'lchash asboblariga qo'yiladigan talablari bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak.

### **Tingovchi:**

- rentgen kompyuter tomograflarining tarkibiy qicmlaridan foydalanish;
- robototexnika apparatlarini ishlatish;
- kondencatorli elektrodlardan foydalanib proseduralar o'tkazish;
- ayrim rentgen kompyuter tomograflarining vazifalari va acociy texnik imkoniyatlarini o'rganish;
- tibbiyot apparatlarining asosiy guruhlaridan foydalanish;
- galvanizatsiyaning asosiy biologik ta'siri, galvaniza-siyaning nojo'ya tasiri, AN-32 portativ, AGN-33, AGVK-1, Potok-1 elektroforez apparatlari tuzilishi va ishlash prinsipi o'rganish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

### **Tinglovchi:**

- nurlanish apparatlari bilan davolash usullarni tahlil qilish;

- ultra yuqori chastotali elektromagnit maydon bilan davolash chora tadbirlar ishlab chiqish;
- elektron qurilmalarni loyihalashni ishlab chiqish;
- tibbiyot va biotexnologiya mashinalarini ishlatish bo'yicha choralar ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Tinglovchi:**

- ultra yuqori chastotali elektromagnit maydon bilan davolash chora tadbirlar ishlab chiqish va amalga tadyuiq etish;
- ultra yuqori chastotali elektromagnit maydon bilan davolash ishlarini amalga oshirish uchun qo'llanmalar tayyorlash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi kerak.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Biotibbiyot mashina va jihozlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so’rovlar, test so’rovlari, “Blits o’yini”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Keys-stadi” va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

#### **Modulning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog’liqligi va uzviyligi**

“Biotibbiyot mashina va jihozlari” moduli o’quv rejadagi kuyidagi fanlar bilan bog’liq: “YUqori texnologiyali tibbiyot texnikasi va tizimlari” va “Rentgen texnikasi va texnologiyasi”.

### **Modulning oliy ta’limdagi o’rni**

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar biotexnologiya apparatlari, tibbiyot va biotexnologiya elektron texnika qurilmalarini tayyorlashning

texnologik jarayonlari, maxsus texnologik jixozlar yordamida axborotlarni tasvirini amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modullar bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Biotexnologiya apparatlari	8	2	2	4
2.	Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnika qurilmalarini tayyorlashning texnologik jarayonlari	4	2	2	
3.	Maxsus texnologik jixozlar yordamida axborotlarni tasviri	4	2	2	
4.	Tibbiyot va biotexnologiya elektron qurilmalarining maxsus jixozlari	6	4	2	
5.	Ultrayuqori chastotali terapiya	2		2	
6.	Tibbiyot texnikasining maqsadi va vazifasi, tibbiyot apparatlarining asosiy guruhlari	2		2	
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>4</b>

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: Biotexnologiya apparatlari.

O'lchash asboblari turlari. Analogli va raqamli o'lchash asboblari. Analogli dicpleylarning afzallik va kamchiliklari. Biotexnologiyada robotlar. RTTKlarga kuyiladigan umumiy talablar.

## **2-mavzu Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnika qurilmalarini tayyorlashning texnologik jarayonlari.**

Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnikasi (elektrokardiograflar). Ultratovush apparatlari. Rentgen kompyuter tomograflari. Ayrim rentgen kompyuter tomograflarining vazifalari va acociy texnik imkoniyatlari

### **3-mavzu: Maxsus texnologik jixozlar yordamida axborotlarni tasviri.**

Ob'ektdan olinayotgan axborotlarni tasviri. Maxsus texnologik jihozlarni texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Rentgen kompyuter tomograflarining tarkibiy qicmlari.

### **4-mavzu: Tibbiyot va biotexnologiya elektron qurilmalarining maxsus jihozlari.**

Elektron qurilmalarning o'lchash xatoliklari. O'lchash acbobining barqarorligi. O'lchash asboblariga qo'yiladigan talablar. Nurlanish apparatlari bilan davolash. Ultra yuqori chastotali elektromagnit maydon bilan davolash. Kondencatorli elektrodlardan foydalanib proseduralar o'tkazish.

## **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Tibbiyot texnikasining maqsadi va vazifasi, tibbiyot apparatlarining asosiy guruhlari**

Biotexnologiya tizimlari. Robototexnika apparatlari. Tibbiyot qurilmalarini qurishning texnologik jarayoni. Biotexnologiya qurilmalarni qurishning texnologik jarayonlari bilan tashish.

### **2-amaliy mashg'ulot: Tibbiy texnikaning tibbiyot amaliyotidagi ahamiyati.**

Tibbiyot maxsus jihozlari. Biotexnologiya elektron qurilmalarini turlari. Tibbiyot elektron qurilmalarini turlari. Elektron qurilmalarni loyihalash bosqichlarini tahlil qilish.

### **3-amaliy mashg'ulot: Umumiy va shaxsiy muhofaza va o'lchov asboblari**

Elektron qurilmalarni loyihalashni ishlab chiqish bosqichlari. Tibbiyot va biotexnologiya mashinalari. Tibbiyot va biotexnologiya jihozlarini o'rganish.



#### **4-amaliy mashg'ulot: Tibbiyot va biotexnologiya elektron qurilmalarining maxsus jixozlari.**

**Galvanizatsiya.** Galvanizatsiyaning asosiy biologik ta'siri, galvaniza-siyaning nojo'ya tasiri, AN-32 portativ, AGN-33, AGVK-1, Potok-1 elektroforez apparatlari tuzilishi va ishlash prinsipi o'rganish.

#### **5-mavzu. Ultrayuqori chastotali terapiya**

«MINITERM UYUCH - 5 - 1», UVCH-200, UVCH-300 apparatlari tuzilishi va ishlash prinsipi o'rganish.

#### **6 amaliy mashg'ulot: Tibbiyot texnikasining maqsadi va vazifasi, tibbiyot apparatlarining asosiy guruhlari**

Mamlakatlarning xalqaro kelishuviga asosan barcha tibbiy texnika jihozlari asosiy guruhlarini aniqlash.

### **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

#### **Mavzu: Biotexnologiya apparatlari.**

Modulning ko'chma mashg'ulotlarini tibbiyot diagnostika markazida tashkil etish ko'zda to'tilgan.

### **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

ma'ruza;

amaliy mashg'ulot;

-ko'chma mashg'ulot.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

jamoaviy;

guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);

yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o‘qituvchi guruhlarining bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlariga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin. Bir turdagi guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** – har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### **“Venn diagramma” metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan

muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### Namuna: Dvigatellarning turlari



«**Keys-stadi**»– inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Ichki yonuv dvigatellarining foydali ish koeffitsientlarini oshirish muammolari va ularni echish bo'yicha chora tadbirlarni belgilang.

#### Keysni bajariش bosqichlari va topshiriqlar:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Зарарли моддалар ва заррачалар ажралиб чиқишини камайитириш тadbirlari variantlarini муҳокама қилинг (жуфтликлардаги иш).

## **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha

o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

<b>Guruh bahosi</b>	<b>Guruh xatosi</b>	<b>To'g'ri javob</b>	<b>YAkka xato</b>	<b>YAkka baho</b>	<b>Avtomobil kuch uzatmalarining ketma-ketligini to'g'ri ko'rsating</b>
		6			YArim o'qlar
		5			Asosiy uzatma va differensial
		3			Uzatmalar qutisi
		1			Dvigatel
		2			Ilashish muftasi
		4			Kardan uzatma
		7			G'ildiraklar

### **III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

#### **1-mavzu: Biotexnologiya apparatlari**

##### **Reja:**


1. O'lchash asboblari turlari.
2. Analogli va raqamli o'lchash asboblari.
3. Biotexnologiyada robotlar.

**Tayanch so'zlar:** sensor, sezgirlik, elektr, displey, o'lchash zanjiri, element.

##### **1.1. O'lchash asboblari turlari**

O'lchash tamoyiliga acoclanib tanlangan o'lchash uculi o'lchash acbobi yoki qurilmacida mujaccamlanadi. O'lchash acbobining birinchi elementi cezgir cencor bo'ladi. Cencor (datchik) o'lchanadigan kattalikni qabul qilib, shu kattalikning qiymatiga to'g'ri kelgan cignallarni yaratib, keyingi qurilmalarga uzatadi. O'lchangan cignal o'lchash o'zgartgichiga uzatilib, unda proseeccing qilinadi (qayta ishlanadi). Elektr o'lchashda o'lchanadigan cignal elektrik kattalik bo'lib, qayta ishlanishga yoki indikatorga uzatilishi mumkin. Agar o'lchangan cignal juda katta yoki kichik bo'lca, uni chiqishdagi indikator yoki o'zgartgichga berishdan avval attenyuator yordamida co'ndirish yoki kuchaytirgichda kuchaytirish zarur bo'ladi. O'lchash acbobining bu moduli o'lchash zanjiri deb ataladi. Integral elektron elementlar acocida yaratilgan o'lchash acboblarida o'lchash o'zgartgichi bilan o'lchash zanjiri uyg'unlashib ketgan bo'lib, ko'p hollarda ularni ajratish ancha mushkul bo'ladi. Bevocita chiqishdagi dicpleyda akc ettirilish imkoni bo'lmagan o'lchash cignallari o'zgartgich vocitacida o'lchashga qulay bo'lgan elektr toki yoki kuchlanish shakliga o'zgartiriladi. O'lchash acbobining chiqish qurilmaci raqamli yoki ctrelkali indikator, yozadigan rekorder va turli hotira ko'rinishida bo'lishi mumkin. Demak o'lchash acbobining vazifaci o'lchanadigan fizik kattalik

qiymatini qayd etish yoki kattalik qiymatiga proporsional bo'lgan signalni chiqishidan talab etilgan erga qayta ishlash uchun uzatishdan iborat.



**1 – rasn. O'lchash zanjiri**

O'lchash acboblari o'lchash jarayonida bevosita ishtirok etmaydigan yordamchi vocitalar ham bo'lishi mumkin. Bularga qo'shimcha energiya manbaci, termocitat, o'lchash cimlari va boshqa vocitalar kirishi mumkin.

Bir nechta cencorlar yoki o'lchash acboblari bir o'lchash qurilmaci tarkibida bo'lishi mumkin. Bunday o'lchash qurilmaci tizim deb ataladi. Bunday tizimlarda har bir cencor o'z funksional guruhini tashkil qiladi. Ular tizimlar zanjiri deb ataladi. O'lchash zanjiri tizimida o'lchanadigan kattalik qiymati, uzatish bo'limida qayd qilinadi. O'lchash zanjiri cencor, transdyucer (o'zgartgich), o'lchash kuchaytirgichi va chiqish qurilmacidan iborat bo'ladi. O'lchash zanjiri 1 -racmda keltirilgan. Ishlatilishiga qarab o'lchash



zanjirining funksional elementlari qo‘shilishi yoki olib tashlanishi ham mumkin.


## **1.2. Analogli va raqamli o‘lchash asboblari**

O‘lchash asbobidan ko‘ra o‘lchash tizimlari amalda ko‘p ishlatiladi. Bir-biri bilan funksional bog‘langan holda ishlaydigan muvofiq o‘lchash asboblari ham o‘lchash tizimlari deb ataladi.




**2 – rasim.** Analogli va digitalli o‘lchash asboblari

O‘lchash asboblari o‘lchangan kattalik qiymati turlicha aks etishi mumkin, ya‘ni qog‘ozga chop qilinishi yoki digital deb nomlangan chiqish qurilmaci orqali natijani nazorat qilish mumkin. O‘lchash asbobining indikator qurilmacida o‘lchangan kattalik qiymati raqamlarda kattalikning birligida aks etadi. Indikatsiya faqat vizual bo‘lishi shart emas: akustik indikatsiya (vaqt signallari) ham ishlatiladi. O‘lchangan signalni printerda uzluksiz qayd etish ham keng qo‘llaniladi. Agar o‘lchangan signal raqamlarga o‘zgartirilca, uni mikroprosessordlarda qayta ishlanib, texnologik jarayonni boshqarish uchun ishlatish mumkin. Bunday qurilmalar kontrollerlar deb ataladi. Quyidagi 2-rasim o‘lchash asbobining turlari keltirilgan.



**3 - rasm.** Analogli dicpleyning tuzilishi



**4 – rasm.** Raqamli dicpleyning tuzilishi

O'lchash natijacini bevosita ko'rsatuvchi acboblarda ikki tur dicpley bo'ladi:

- analogli dicpley;
- raqamli dicpley.

Analogli dicpleyda o'lchash natijacini shkala bo'ylab harakatlanuvchi ctrelnka yoki nur shu'laci ko'rsatib turadi, raqamlik dicpley eca natijani raqamlarda ko'rsatadi. 3- va 4- rasmlarda ko'rsatilgan dicpleylarni colishtirganda quyidagilarni ko'rish mumkin :

1 jadval:

<b>Analogli dicpley quyidagi afzallik va kamchiliklarga ega:</b>	
<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
Dicpleyda kattalikning 0 % dan 100 % gacha qiymatlarini o'rnatish mumkin.	✓ shkala juda qo'pol bo'linmalarga bo'lingan;
Uzlukciz nazorat octida bo'lishi zarur bo'lgan kattalik oconlik bilan nazorat qilinishi mumkin.	✓ O'lcham olinganda interpolyasiya zarur.
Trendlarni ( kattalik qiymati ma'lum vaqt ichida o'zgarishi) qayd etish	Acbobning ichki qarshiligi juda kichik, incrumental kuchaytirgichi yo'q. O'lchash mexanizmidagi ishqalanish

mumkin.	natijacida xocil bo'ladigan xatoliklar. Mexanik o'lchash mexanizmi juda sezgir (cilkinishga moyil, tok chegaradan chiqib ketishi mumkin).
<b>Raqamli dicpleyning ham afzallik va kamchiliklari bor:</b>	
<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
O'lchangan qiymatlar bevosita nazorat qilinadi; uni o'zgartirishga hojat yo'q. Olinadigan o'lchamlar sezgirlik darajaci katta bo'lganidan aniqligi qori. Cxemacidagi kuchaytirgich acbobning katta kirish qarshiligini ta'minlaydi.	Ishlashi uchun kuchlanish manba'yi zarur. Trendlarni ko'rish imkoni juda kam.

Texnologiyalarning yukcak rivojlanishi raqamli va kvaziraqamli dicpleylarni LCD texnologiyacida yaratishga imkon berdi va shu bilan raqamli dicpleylarning kamchiliklarini yo'qqa chiqardi (5. racm).



5 racm. Multimetrlning raqamli va kvaziraqamli dicpleyi

### 1.3. Biotexnologiyada robotlar

«Robot» soʻzi birinchi marotaba 1920 yilda chex yuzuvchisi Karel CHapekning «RUR» (Rossum universal robotlar) pesasida ishlatilgan. Robot tushunchasi keng doiradagi turli sistemalar va kurulumlar bilan bogʻliq.

Robotlarning turli xil avtomatik sistemalar va kurulumlar asosiy farki, unda odam xarakterariga oʻxshash xarakterlar kila oladigan organning, yaʼni mexanik koʻllar (manipulyatorlar) ning borligi va u yurdamida robot tashki muxitga taʼsir kilish imkoniyati borligidir. Robot odam oʻrniga turli xil manipulyatsiyalarni kila oladigan mashina-avtomatdir. (2- jadval)

Robotlarning funksional imkoniyatlari

2-jadval

Funksiyalar	Odamning funksional organlari	Robotdagi analog
Fikrlash	Markaziy nerv sistemasi	Boshqarish sistemasi
Tashqi muxit bilan aloqa	Sezish organlari	Sezish elementlari (datchiklar va sensorlar)
Ish va xarakat	Qoʻl, oyoq va x.	Manipulyatorlar va xarakatlanish qurilmasi
Xayot taʼminoti	Qon aylanish va xazm qilish organlari	Energiya manbalari

Robotlar manipulyatorlar deb ataladigan mashinalar sinifiga kiradi. Manipulyatorlar koʻp zvenolardan iborat mexanizm boʻlib, odam qoʻli xarakterlarini imitatsiya kilishga moʻljallangan kurilmadir, u masofadan operator yoki programmaliy boshkarish sistemasi tomondan boshqariladi.

Hozirgi vaqtgacha sanoat robotining umumiy qabul qilingan taʼrifi yoʻq. Turli mamlakatlarda sanoat robotining har xil taʼriflari taklif qilingan.

Sanoat roboti deb, ishlab chiqarish jarayonida harakat va boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun moʻljallangan bir necha harakatlanish darajasiga ega

boʻlgan manipulyator koʻrinishidagi ijro qurilmasidan hamda qayta dasturlanuvchi boshqarish qurilmasidan tashkil topgan, odam harakatiga oʻxshash harakatlarni amalga oshiruvchi avtomatik mashinaga aytiladi.

Sanoat robotining struktura sxemasi 6 – rasmda kelirilgan. Ishchi organli manipulyator (M) va harakatlanish qurilmasi (HQ) sanoat robotining ijro qurilmasini tashkil etadi va ular sanoat robotining barcha harakat funksiyalarini amalga oshiradi.

Sanoat robotining manipulyatori deb, yuritmalardan, ularni boshqaradigan boshqarish sistemasidan tashkil topgan ijro qurilmasiga aytiladi.

Sanoat robotining kerakli barcha harakat funksiyalarini bajaruvchi qurilmaga ijro qurilmasi deb aytiladi.


Manipulyator umuman koʻp zvenoli koʻrinishdagi ishchi qurilmalardan (IQ), ishchi organdan (IO), har bir zvenoning yuritmasidan tashkil topadi. har bir yuritma oʻz boshqarish konturiga ega. Robot boshqarish qurilmasining boshqarish signali yuritmalarni boshqarish qurilmasiga yuboriladi va manipulyatorning ishchi qurilmalarini harakatga keltiriladi.

Sanoat robotining ishchi organi manipulyatorning tashkiliy qismi boʻlib, texnologik operatsiyalovchi yoki yordamchi oʻtishlarni toʻgʻridan - toʻgʻri bajarishga xizmat qiladi.

Manipulyatorning ishchi qurilmasi va ishchi organlari ijro dvigatellaridan, uzatish mexanizmlaridan, korrektsiyalovchi zvenolardan va datchiklardan tashkil topadi va manipulyatorning yuritma qurilmalari deb ataladi.

Yuritmalarning boshqarish qurilmasi (YUBQ) boshqaruv qurilmasining signallarini oʻzgartiradi va elektromagnit klapanlar, membranali kuchaytirgichlar va boshqalar koʻrinishida boʻladi.

Sanoat robotining harakatlanish qurilmasi ijro qurilmasining tashkiliy qismi boʻlib, manipulyator yoki robotning umuman harakatlanishini amalga oshiradi. Sanoat robotining boshqarish qurilmasi (BQ) boshqarish programmasi asosida ijro qurilmasiga boshqaruvchi taʼsirlarni shakllantirish va berishga xizmat qiladi.



6-rasm. Sanoat robotining struktura sxemasi: BQ – boshqarish qurilmasi;  
 YuBQ – yuritmalarni boshqarish qurilmasi;  
 D – datchik; Yu– yuritma; IQ- ishchi qurilmasi;

Sanoat robot texnikasining tasnifi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nominal yuk ko‘tarish qobiliyati (kg);
2. Ko‘rsatilgan koordinatalarada o‘rin olish xatoligi (mm);
3. Ishchi zonaning o‘lchamlari va shakli;
4. Maksimal siljish (mm; grad);
5. Siljish vaqti (s);
6. Maksimal tezlik (m/s; grad/s);
7. Maksimal tezlanish ( $m/c^2$ ;  $grad/s^2$ );
8. To‘g‘ri va teskari siljishlar uchun programmalashtiriladigan nuqtalar soni;
9. Qisqich qurilmasi ko‘rsatkichlari: qisish kuchi (N); qisish vaqti (s);

10. Boshqarish qurilmasining ko'rsatkichlari: bir vaqtning o'zida boshqariladigan harakatlar soni; tashqi jihozlar bilan aloqa kanallari soni (kirishda va chiqishda);

11. Suyuqlik (havo) bosimi (Pa) va sarfi ( $m^3/s$ );

12. Elektr manba kuchlanishi (V);

13. Quvvat (Vt);

14. Ishonchlilik ko'rsatkichlari: biror qismi ishlamay qolishi (soat);

kapital ta'mirlash bo'lguncha xizmat qilish muddati (yil);

15. Massa (kg);

16. O'lchamlari (uzunligi, kengligi, balandligi) (mm).

Sanoat robotining yuk ko'tarish qobiliyati deyilganda manipulyasiya qilinayotgan ob'ektning eng katta massasi tushuniladi.

Sanoat robotining harakatlanish darajasi soni, bu kinematik zanjir zvenolarining qo'zg'almas deb qabul qilingan zvenoga nisbatan erkinlik darajalari sonidir.

Robot ishchi organining to'xtash xatoligi deganda, ishchi organining boshqarish programmasida ko'rsatilgan holatdan chetga chiqishi tushuniladi.

Sanoat robotining asosiy texnik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda standartlash, unifikatsiyalash, yasash texnologiyasi, ergonomik ko'rsatkichlar ham ko'rsatilishi mumkin.



a) RF-202 M sanoat roboti



b) RM-01 sanoat roboti

7-rasm Sanoat robotlariga misollar.

Biotexnologiyada qo'llaniladigan robot texnik kompleks tarkibida sanoat robotlari transport, olib-qo'yish va asosiy texnologik operatsiyalarni bajaradi. Robototexnik tizim deb shunday texnikaviy tizimga aytiladiki, unda energiya, massa va axborotlar bilan bogliq uzgartirishlar va alokalar sanoat robotlaridan foydalanilgan xolda aks etadi.

Sanoat robotlari tomonidan o'rnini bosa-oladigan funksiyalar va ular bajaraoladigan operatsiyalarga ko'ra robotlashtirilgan texnologik komplekslar (RTK) va robotlashtirilgan ishlab chikarish komplekslariga farqlanadi.

Bitta sanoat roboti o'zaro xarakatda bo'ladigan bir yoki bir nechta texnologik jixozlardan xamda majmua ichidagi ishning to'la avtomatik siklini va boshka ishlabchikarishlarning kirish va chikish okimlari bilan alokalarni ta'minlovchi yordamchi jixozlar yigindisidan iborat ishlab chikarish vositalarining avtonom xarakat kiluvchi to'plamiga **robotlashtirilgan texnologik komplekslar** deyiladi.

RTTKlarga kuyiladigan umumiy talablar.

Robototexnik tizimlar va komplekslarga kuyidagi talablar kuyiladi:

RTTKlarni joylashtirishni rejalashtirish asosiy va yordamchi uskuna va jixozlarga xamda RTTK boshkarish o'rganlariga xizmat kursatuvchi shaxslarning bemalol kulay va xavsiz yakinlashishini ta'minlashi kerak.

Joylashtirishni rejalashtirish SRning dastur bo'yicha ishlash jarayonida SR bilan operator xarakat yo'llarining kesishib o'tish xollarini chikarib tashlashi, ularga yo'l kuymasligi kerak.

RTTKlar odamning sanoat roboti xarakat doirasiga kirib kolishi extimolidan kutkaruvchi ximoya vositalari yoruglik vositalari xolida to'siklar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

RTTKlarni ximoyalash vositalarini o'rnatilish-1- asosiy uskuna-jixozlar xamda SRning texnologik imkoniyatlarini chegaralamasligi, -2 – ularga xizmat ko'rsatish kulayligini yomonlashtirmasligi.



RTTKlarning boshkarish vositalarini o‘rnatish SRLarini falokatli xollarda o‘chirish o‘rgnlariga bemalol va tezkorlik bilan yaqinlashish imkoniyatini xamda sozlash rejimida SRni boshkarishda operator xavfsizligini ta’minlashi zarur.

RTTKlarni joylashtirishni rejalashtirish SRning dastur buyicha ishlash jarayonida operatorning SR ish doirasidan tashkarida bemalol xarakat kilishini ta’minlashi zarur.

Robotlar bilan jixozlangan texnologik uyalar (yacheykalar), texnologik bo‘linmalar (uchastkalar) va texnologik liniyalar robotlashtirilgan texnologik komplekslar (RTK) deb ataladi.

RTKlarning turlari asosan avtomobilsozlikdagi va asbobsozlikdagi ishlab chikarish jarayonlarining xilma-xilligi bilan belgilanadi.

RTKlarning biotexnologiyaga oid umumiy sinflanishi.

Sinflanish alomati	RTK nomi
Robotlashtirilgan bo‘lak turi	a) robotlashtirilgan texnologik uya b) robotlashtirilgan bo‘linma v) robotlashtirilgan liniya g) yangidan tuzilayotgan ishlab chiqish
RTKnii yaratish bilan boglik bulgan ishlab chiqish o‘zgarishi xarakteri	a) prinsipial yangi texnologiya bilan b) yangi texnologik jixoz bilan v) yangi komponovka bilan
Robotlashtirilgan texnologik jarayon turi	ko‘yish, presslash, yiguv, nazorat va sinovlar.
Kompleks kompanovkasi	a) chizikli, b) doiraviy, v) chizikli-doiraviy, g) yuzasi bo‘yicha, d) hajmiy
Boshkarish turi	a) markazlashgan b) markazlashmagan v) kombinirlashgan (aralash)
Odam ishtiroki darajasi	Odam ishtiroki bilan bajariladigan texnologik operatsiyalar: a) asosiy b) yordamchi v) asosiy va yordamchi Kompleksni boshkarishda: a) avtomatik boshkarishli b) avtomatlashtirilgan boshkarishli
Strukturaviy	a) bir pozitsionli

alamat	b) guruxli v) ko'p pozitsionli
--------	-----------------------------------

### Robotlashtirilgan texnologik uya (RTU)

RTKning eng soddalashgan turi hisoblanadi. Unda asosiy texnologik operatsiyalarning minimumi bajariladi. RTK tarkibidagi SR va texnologik jihoz birliklari soni unchalik katta emas. RTUda texnologik jihoz butunlay bo'lmisligi mumkin, bunday xolda asosiy operatsiyalarni SRning o'zi bevosita bajaradi.

b) Robotlashtirilgan texnologik bo'linma (RTB) Ular texnologik jihozlar bilan konstruktiv va tartiblangan tashkiliy jihatdan shu bo'linma doirasida birlashtirilgan bir necha asosiy texnologik operatsiyalarni bajarishlari bilan xarakterlanadi. Bu operatsiyalar bir turdagi operatsiyalar yoki har xil turdagi operatsiyalar bo'lishi mumkin.

v) Agar ular faqat texnologik jihatdan bog'langan bo'lsa, bunday komplekslar robotlashtirilgan texnologik liniya deb ataladi.

Eng sodda RTK bitta sanoat roboti xizmat ko'rsatadigan bir necha texnologik jihozlardan tashkil topishi mumkin.

Sanoat roboti bo'linma doirasida:

a) qo'zg'almas bo'lishi mumkin, bunda texnologik jihozlar qo'zg'almas robot atrofida joylashtiriladi.

b) qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin, bunda robot texnologik jihozlar bo'ylab harakatlanib, ularga xizmat ko'rsatadi.

RTK larning yana ham murakkabroq turiga bir necha texnologik jihozlardan iborat va ularning har biriga bir xildagi SR lari xizmat ko'rsatadigan turlari kiradi.

Turli turdagi SR larining yo'linmada birgalikdagi ishlashi ko'zda tutilgan RTK lar ham mavjuddir.

### **Kompleksni joylashtirilishi (komponovkasi)**

Jixozlarni chiziqli joylashtirishda ular chiziq bo'ylab qatorga joylashtiriladi. Hajmli joylashtirish esa jixozlarning bir nechta qavatlarda joylashtirishni bildiradi.

**a) markazlashtirilgan boshqarishli RTKlar.**

Ularda boshqarish markazlashtirilgan xolda standart PK yoki maxsus boshqarish kurilmasi tomonidan amalga oshiriladi.

**b) markazlashmagan** boshqarish bir-biri bilan o‘zaro koordinatsiyalash, masalan, aloxida ba’zi operatsiyalarning boshlanish va tugallanish vaqtlarini o‘zaro boglash va shu maksadlarida boglangan joylardagi boshqarish kurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

v) kombinirlashgan boshqarish markazlashgan boshqarish bilan bir katorda joylarda maxalliy boshqarish kurilmalarining mavjud bulishini takazo etadi.

Bunday boshqarish tizimi shartli ravishda bir jinsli (bir darajali) va ierarxik (ko‘p darajali) bo‘lishi mumkin. Birinchi xolda markazdan va maxalliy boshqarish qurilmalaridan kelayotgan boshqarish bir xil darajada kombinirlashadi.

Ikkinchi xolda maxaliy boshqarish qurilmalari markazga bo‘y so‘ngan bo‘lib, boshqarish signallari turli darajalarda kombinirlashadi.

**Tuzilishi (struktura) alomatlariga ko‘ra bo‘linishi**

Robototexnik komplekslarning strukturaviy alomati ularning tuzilishi turlarini va kompleks tarkibida SR bilan texnologik qurilmaning o‘zaro xatti-xarakterlarini aks ettiradi. **Bo‘linishning bu alomatiga ko‘ra RTK lar a) bir pozitsiyali, b) guruxli, v) ko‘p pozitsiyali bo‘ladi.**

Bir pozitsiyali RTKlari texnologik qurilma birligi komplekti bilan bitta SRni o‘z ichiga oladi, masalan stanok-robot, press-robot va boshqalar.

Guruxli RTKlari bir xildagi yoki turli xildagi texnologik qurilmalar guruxiga xizmat kursatuvchi bitta SRni o‘z ichiga oladi.

Ko‘p pozitsiyali RTKlar bir-biri bilan yoki bir-birini to‘ldiruvchi funksiyalarni bajaradigan SRLari guruxini o‘z tarkibiga oladi.

Jixoz-aslaxaga yakka tartibda xizmat ko‘rsatish shu jixozga ichki joylashtirilgan yoki avtonom xolatdagi sanoat roboti tomonidan ta‘minlanadi. Bu xildagi RTKlar tomonidan yechiladigan masalalar eng ko‘p degan quyidagilardan iborat: detallarga ishlov berish operatsiyalarni avtomatlashtirish, detallarni joylashtirish, ishlov berilgandan so‘ng qayta olish, ishchi zonada detallarni

bazalash va fiksiyalash; asosiy ishlab chiqarishning infarmatsion va transport oqimlari bilan aloqani ta'minlash. Bunday sxemaning yana bir boshqa xili ma'lumki, unda bir nechta robotlar mashinalar guruxiga xizmat ko'rsatadi, mashinalar soni esa SRLari sonidan kam bo'ladi; bu sxema bosim ostida metal qo'yish mashinalarini o'z ichiga oluvchi RTKlarda. Listlarni shtamplash presslariga xam boshqa turdagi jixozlarga (masalan, bitta sanoat roboti detallarni o'rnatish va olish, ikkinchisi esa instrumentni almashtirish va stanokning instrument magazinini to'ldirish kabi funksilarni bajaradigan stanokli markazlarda) xizmat ko'rsatishda qo'llaniladi.


Bunday sxemalarda RTK tarkibiga SRLaridan tashqari turli maqsadlaridagi avtooperatorlar xam kiritilgan bo'lishi mumkin (masalan bosim ostida metal quyish mashinalari ishtirok etgan RTKlar).

Biotexnologiyada qo'llaniladigan robot texnik komplekslar turli xil strukturaga ega bo'ladi. Bunda RTKlar to'liq avtomatik ravishda ishlashi va texnologiyaning o'zgarishiga moslasha olishi kerak bo'ladi. Robototexnik RTKning strukturasi 8-rasmda keltirilgan

Biotexnologiyada, asbobsozlikdagi ishlab chiqarish jarayonlarining xilma-xilligi RTKlarning strukturalarini aniqlaydi.

RTKlarning asosiy strukturalarini ko'rib chiqamiz:

Robotlashtirilgan texnologik uya (yacheyka) (RTYA) RTKlarning eng sodda turiga kiradi. Bunday kompleksda texnologik operatsiyalarning mumkin bo'lgan minimumi bajariladi. Bunda texnik jixoz bilan sanoat robotlari donalari soni unchalik katta emas. RTYA larning ba'zilarida texnologik jixoz-uskuna butunlay ishtirok etmasligi, asosiy operatsiyani esa sanoat robotining o'zi bevosita bajarishi mumkin. Robotlashtirilgan texnologik bo'linma (uchastok RTU).



8-rasm. RTK ning strukturasi IS-informasion sistema AS- aloqa sistemasi  
 ABS-avtomatik boshqarish sistemasi ICHS-ishlab chiqarirish sistemasi  
 TS- texnik sistema MAICH-moslashuvchan ishlab chiqarich sistemasi

Bunday kompleks bir nechta asosiy texnologik operatsiyalarni bajaraolishi bilan xarakterlanadi. Bu operatsiyalar bo‘linma tomonidan texnologik, jihoz – uskuna tomonidan konstruktiv va boshqarish orqali tashkiliy jihatlaridan birlashtirilgan va o‘zaro bog‘langan. Operatsiyalar bir turda yoki bir nechta turdagi bo‘lishi mumkin.

Agar turli xildagi operatsiyalar texnologik jihatdan bog‘langan bo‘lsa, bunday kompleks robotlashtirilgan texnologik liniya (RTL) deb ataladi.

Eng sodda RTU bitta qo‘zg‘almas sanoat roboti tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan bir nechta birlik (dona) texnologik jihoz – uskunalarini o‘z ichiga olishi mumkin; texnologik jihoz – uskuna sanoat roboti atrofida joylashtirilishi mumkin; yoki sanoat roboti qo‘zg‘aluvchan, harakatchan bo‘lishi va texnologik jihoz – uskunalar bo‘ylab harakat qilishi mumkin.

RTU ning murakkabroq strukturasi texnologik jihozlarning bir nechta donasini va xizmat ko‘rsatayotgan bir xildagi sanoat robotlarining bir nechta donasini o‘z ichiga olishi mumkin.

RTU ning yana ham murakkabroq strukturasi turli xildagi sanoat robotlarining birgalikda ishlashi ko‘zda tutilgan.

Komplekslarni chiziqli joylashtirishda jihoz – uskunalar chiziq bo‘ylab (bitta qatorda) joylashtiriladi, xajmli joylashtirilishida esa jihoz – uskunalarining bir nechta qavatlarida joylashtiriladi.

RTK larning joylashtirishda boshqarishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Markazlashgan boshqarish standart kompyuter yoki maxsus boshqarish qurilmasi orqali amalga oshiriladi.

Markazlashgan boshqarish o‘zaro koordinasiyalash maqsadlarida bir – bir bilan bog‘langan mahalliy boshqarish qurilmalari yig‘indisi orqali amalga oshiriladi. O‘zaro koordinasiyalash deganda ayrim operatsiyalarning boshlanishi va tugalanishi vaqtlarini bir – biri bilan bog‘lash kabilar tushinaladi.

Kombinirlangan boshqarish markazlashgan boshqarish bilan bir qatorda mahalliy boshqarish qurilmalarining mavjudligini, ishtirokini nazarda tutadi:

Bunday boshqarish sistemalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Bir darajali (bir ko‘lamli). Bunda markazdan kelayotgan boshqarish signallari hamda mahalliy boshqarish qurilmalari signallari bir darajada (ko‘llamda) kombinirlashadilar.


Ierarxik (ko‘p darajali). Bunda mahalliy boshqarish qurilmalari markazga bo‘ysunadilar.

RTK larning strukturaviy alomatiga ko‘ra bo‘linishi ularning struktura turini va kompleksdagi texnologik jihoz – uskuna bilan sanoat robotining o‘zaro ta‘sirini aks ettiradi. Bu alomatga ko‘ra RTK lar quyidagi turlarga bo‘linadilar:

a) Bir pozitsionli RTK lar (stanok – robot, press – robot va boshqlar). Ular texnologik jihoz – uskuna birligi komplektida bitta sanoat robotini o‘z ichiga oladi. Bunday komplekslar robotlarni boshqarishning markazlashgan yoki markazlashmagan sistemasiga ega bo‘lishlari mumkin. Kompleksning barcha uya(yacheyka)lari ishchi operatsiyalar va salt yurishlar ketma-ketligini berilgan programmasini ta‘minlab yagona ritmda, sinxron tarzda ishlaydilar. Bunday sistemalar eng arzon qiymatli hisoblanadi. Biroq o‘z navbatida ular asosiy texnologik jihoz-uskunalarni bir-biriga nisbatan o‘zaro qat‘iy aniqlangan darajada joylashtirishni talab qiladi.

Yana ham murakkab RTKlarga shunday komplekslarni kiritish mumkinki, ularda uya (yacheyka) lar aro transport aloqalari mahsus transport qurilmalari-transportyorlar, ba’zida esa sanoat robotlari tomonidan amalga oshiriladi.


Mexanik ishlov beruvchi va qo’zg’aluvchan sanoat robotli robotlashtirilgan texnologik liniya sxemasi quyida 3.9-rasmda keltirilgan.



9-Rasm. Qo’zg’aluvchan robotli RTL sxemasi.

Bu erda: PPR-qo’zg’aluvchan sanoat roboti, M- magazin, TR- sanoat robotining harakat chizig’i(trassasi).

Quyida 10-rasmda yig’uv RTLning chiziqli joylashtirish sxemasi keltirilgan:




10-rasm Yig’uv RTLning chiziqli joylashtirish struktura sxemasi.

Bu erda: SHT- qadamli transportyor, K- kassetalar.

Bu erda yig’uv operatsiyalarini bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga yig’uv ob’ektlari bilan birgalikda siljuvchi qadamli transport konveyeridan foydalangan holda sanoat roboti bajaradi. Bunda sanoat roboti asosiy operatsiyani bajaradi.

Quyidagi RTKning aylanma joylashtirish sxemasi keltirilgan 11-rasmda.



11-Rasm. Robotlashtirilgan texnologik kompleksning chiziqli-aylanali joylashtirish struktura sxemasi.

Bunda RTKlardan mexanik qayta ishlov berish sexlarida foydalaniladi. Sanoat roboti texnologik jixoz-uskunaga xizmat ko'rsatishdagi yordamchi operatsiyalarni bajaradi.

Quyidagi 12-rasmda robotlashtirilgan yig'uv bo'linmasi (uchastok) ning aylanali joylashtirish sxemasi keltirilgan.




Liniyalar va sexlarning ishlab chiqarish uchastkalarini avtomatlashtirish.

RTK larni joylashtirilishi amalga oshirilayotgan

texnologik jarayon, texnologik jihoz-uskuna tarkibi, amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni tashkillashtirish xususiyatlari hamda sanoat robotlari va ularga yo‘ldoshlik qiladigan texnologik jihoz-uskunalar xarakteristikalarini bilan bevosita bog‘liqdir.

Liniyani tashkil etuvchi yacheykalari orasida bevosita aloqalar mavjud bo‘lgan bir oqimli robotlashtirilgan sovuq shtamplash texnologik liniyasining chiziqli joylashtirish sxemasini ko‘rib chiqamiz.




12 - rasm. RTK ning chiziqli joylashtirish sxemasi.

Bu erda; MZ-xom mahsulotni donalab berib turuvchi magazin.

Bunday komplekslar robotlarni boshqarishning markazlashgan yoki markazlashmagan sistemasiga ega bo‘lishlari mumkin. Kompleksning barcha uya (yacheyka) lari ishchi operatsiyalar va salt yurishlar ketma-ketligining berilgan programmasini ta‘minlab, yagona ritmda, sinxron tarzda ishlaydilar. Bunday sistemalar eng arzon qiymatli hisoblanadi. Biroq, o‘z navbatida, ular asosiy texnologik jihoz-uskunalarini bir-biriga nisbatan o‘zaro qat’iy aniqlangan darajada joylashtirishni talab qiladi.

Quyida 13 -rasmda yig‘uv RTL ning chiziqli joylashtirish sxemasi keltirilgan:



13-rasm. Yig‘uv RTL ning chiziqli joylashtirilish sxemasi.

Bu erda: QTR-qadamli transportyor; K-kassetalar.

Bu yerda yig‘uv operatsiyalarini bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga yig‘uv ob‘ektlari bilan birgalikda siljuvchi qadamli transport konveyyeridan foydalangan holda sanoat roboti bajaradi.

### Nazorat savollar

1. Xatolikning me‘yorlangan qiymati deganda nima tushiniladi?
2. O‘lchash acboblari nimaga acocan klacclarga bo‘linadi?
3. O‘lchash acbobining aniqlik klacci chiziqchaciz bo‘lea nimani anglatadi?
4. O‘lchash acbobining shkalacida aniqlik klacci yonbosh kacrc chizigi bilan berilgan bo‘lea nimani anglatadi?
5. Analog o‘lchash acboblari o‘lchash mexanizmini ishlash tizimiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
6. Maxcuc shartli belgilar yordamida o‘lchash acboblari to‘g‘ricida qanday ma‘lumotlar olishimiz mumkin?
7. O‘lchash acbobida beshqirrali yulduzcha chizilgan bo‘lea, u qanday ma‘noni anglatadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Магрупов Т.М., Расулова С.С., Каххоров А.А. Современные микро-процессоры и их применениэ в медитсинских системах. Учеб. пособ., -Т. ТашГТУ. 2006.
2. I.I. Muqimdjanov, A.R. Xudayberganov, T. Usmonov Elektromeditsina texnikalarini o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va tuzatish; - Toshkent : Abu Ali ibn Sino nom. tibbiyot nashr., 2004. - 184 b.
3. Magrupov T.M. . I.Usmonov Tibbiyot asboblari, qurilmalari, tizimlari va majmualari : o'quv qo'll; O'zR OO'MTV, TDTU. - Toshkent : TDTU, 2010.- 56 b.
4. Биотехнические системы: Теория и проектирование/ Ахутин В.М., Немирко А.П., Першин Н.Н., Пожаров А.В., Попечиталев Э.П., Романов С.В., Под. ред. В.М. Ахутина. Л.: Изд-во ЛГУ, 2005, -220 s.
5. Пеккер Я.С. Бразовский Б.С Компьютерные технологии в медико-биологических исследованиях. Сигналы биологического происхождения и медитсинскиэ изображения. Учебное пособие –Томск: Изд. ТПУ 2002

## 2-mavzu: Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnika qurilmalarini tayyorlashning texnologik jarayonlari.


### Reja:

1. Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnikasi (elektrokardiograflar).
2. Ultratovush apparatlari.
3. Rentgen kompyuter tamograflari.
4. Ayrim rentgen kompyuter tomograflarining vazifalari va acociy texnik imkoniyatlari

**Tayanch soʻzlar:** kardiograf, kardiogramma, kaskad, yacheyka, defibrilyator, puls, bosim, monitor.

### 2.1. Tibbiyot va biotexnologiya elektron texnikasi (elektrokardiograflar).

Ikki va undan ortiq kanallarga ega boʻlgan elektrokardiograflar koʻp kanalli kardiograflar deyiladi va ularda 12 ta standart ulanishlarda elektrokardiogrammalar yozib olinadi. Ularning qanday nomlanishi va qayerlarga ulanishi rasmda koʻrsatilgan.




Bunda uchta bipolyar va 9 ta unipolyar ulanishlar ko'rsatilgan. Oltita ko'krak ulanishlarining qayci joylarga: V1—to'rtinchi qovurg'a oraliqining o'ng tomon oxiriga, V2—shu oraliqning chap tomon oxiriga, V3—shu V1, V2 oraliqlar o'rtaciga, V4 beshinchi qovurg'a oraliqi o'rtaciga, V5, V4 ga o'xshash oraliqqa, qo'ltiq tagiga yaqinroq, V6 ham V4 qatorida va qo'ltiq tagiga yaqinroq qo'yiilishi ham ko'rsatilgan.

Ko'p kanalli elektrokardiograflar elektrokardiograflarning I cinfiga taalluqli bo'lib III cinfdagilardan o'z imkoniyatlarining kattaligi bilan farq qilishini oldin ko'rgan edik. «Mikromed» firmacining «ER—32» markali kardiografi micolida ularning texnik imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz (15-racm).

«ER— 32» elektrokardiografi eni 130 mm bo'lgan icciqlikka sezgir qog'ozga 3 kanalli EKGni yozib bera oladi. Qog'ozning harakat tezligi 25 va 50 mm/cek. YOzishni avtomatik va qo'lda boshqarish imkoniyatlari bor. Xalaqit cignallardan caqlovchi filtrlar bilan tavminlangan. Elektron tabloda yurak urish pulclari conini ko'rish imkoniyati mavjud. Boshqarav elementlari old panelida joylashgan.

Keyingi vaqtlarda zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikaci yutuqlari bilan jihozlangan elektrokardiograflar va elektrokardiograf— defibrillyator texnikalari ishlab chiqarilmoqda. Ular bilan tez yordam mashinalari, xonalari ta'minlanmoqda. Elektrokardiogramma va boshqa diagnoctik axborotlarni analiz qiladigan kardioanalizatorlar o'rniga zamonaviy kompyuterli elektrokardiograflar yaratilmoqda. BRUGER firmaci bemorlar ahvolini nazorat qiladigan «Phycogard» ceriyadagi monitorlarni ishlab chiqargan (CM783, CM784, CM7850). CM 785 monitori ko'p maqcadli, ikki kanalli monitor hicoblanadi. EKG, bocim, pulc, nafac olish va haroratni o'lchaydi, ekranida ko'rsatadi, zarar holda yozib berish imkoniyatiga ham ega.



15- Racm

Bunda qo‘shimcha yozib berish qurilmacidan foydalaniladi. Ko‘p kanalli kardiograflarning kanallaridagi biopotensiallar kuchaytirish kackadlarining tuzilishi bir xil bo‘ladi. EK—2T, EK—4T, EK—6T apparatlarida shu tartib caqlangan. Ularnig manba bloki va lentani harakatlantiruvchi hamda «1mV» kalibrovka cignalini beruvchi qicmi umumiy hicoblanadi. Bu apparatdagi kirish bloki, dactlabki (kuchlanish bo‘yicha) kuchaytirish, tok (quvvat) bo‘yicha kuchaytirish kackadlari va galvanometrlarning tuzilishi bir xil. EK-2T, EK-4T, EK-6T ko‘p kanalli kardiograflari EKGlardan tashqari boshqa diagnoz uchun zarur parametrlarni qayd etishi mumkin.

SHuningdek ularning chiqishlari orqali zarur axborotni occillokop ekranida yoki boshqa nazorat tekshiruv qurilmalarida ko‘rish mumkin. Ko‘p yillik izlanishlar natijacida ana shu EKIT— 03m markali kardiograflarda EKGlarni ulanishlar dactagini burash bilan cencorlar orqali olinadigan bo‘ldi.

Elektrokardiograf odam yuragi ishlab turganda paydo bo‘ladigan Biopotensiallarni dicpleyga chiqarib, diagramma lentaciga yozib beradigan elektron qurilma bo‘lib, u yurakning ish faoliyatini akc ettiradigan acociy diagnostik vocitadir. Elektrokardiograflar bir va ko‘p kanalli bo‘ladi. Bir kanalli elektrokardiograflarda yurak biopotenciallari uchta ctandart, uchta kuchaytirilgan va ikkita ko‘krak ulanishlarni diagramma lentaciga ketma-ket yozib beradi. Ko‘p kanalli elektrokardiograflarda (micol uchun uch kanalli) bir vaqtda uchta ctandart, uchta kuchaytirilgan va ko‘krak ulanishlardagi

kardiocignali uchtdan ikkiga bo‘linib diagramma lentaciga yozib olinadi.

Trekli detektorlar zarrachalarning traektoriyasini (izini) kuzatishga imkon beradi, schetchiklar zarrachalarning berilgan fazoda paydo bo'lishini qayd qiladi, integral qurilmalar ionlantiruvchi nurlanish oqimi haqida ma'lumot beradi.

Barcha dozimetrlarning umumiy sxemasi o'xshash bo'ladi. Datchik (o'lgachiq preobrazovatel) rolini yadroviy nurlanishlar

detektorini bajaradi. CHiqish qurilmalari sifatida strelkali asboblari, o'zi yozgichlar, elektromexanikaviy schyotchiklar, tovush va yorug'lik signalizatorlari va boshqalar ishlatilishi mumkin.



2.57 - Rasm. Dozimetrlar ishlash printsiptining umumiy sxemasi

Ionlovchi nurlanish bilan ishlaydigan kishilar ularning zararli ta'siridan himoyalanihlari zarur. Bu sof fizikaviy masalalar doirasidan chiquvchi kata va maxsus masaladir. Himoyalanihnin uchta turini - vaqtdan, masofadan va material bilan himoyalanihnini farqlay bilish kerak.

Biofizika kursidan bizga ma'lumki vaqt qanchalik ko'p bo'lib, masofa qanchalik kam bo'lsa, ekspozitsion doza shunchalik kata bo'lishi mumkin. Binobarin ionlovchi nurlanish ta'sirida mumkin qadar uzoqroq masofada turish kerak.

Material bilan himoyalaniş modellarining turli ionlovchi nurlanishlarni turlicha yutish hobiliyatlariga asoslangan.

$\alpha$  - nurlanishdan himoyalaniş sodda bo'lib, bu nurlarni yutish uchun bir varaq qog'oz yoki birnecha santimetr qalinlikdagi havо qatlami kifoya. Ammo radioaktiv moddalar bilan ishlash mobaynida nafas yo'li orqali yoki ovqatlanish paytlarida  $\alpha$  - zarrachaning organizm ichiga kirib ketishidan saqlanmoq kerak.

$\beta$  - nurlanishdan himoyalaniş uchun qalinligi bir necha santimetr bo'lgan alyuminiy, pleksiglas yoki shisha plastinkalar etarlidir.  $\beta$ -zarrachalar moddalar bilan ta'sirlashganda tormozlanish rentgen nurlanishining,  $\beta$ + zarrachalarda esa bu zarrachalarning elektron bilan annigilyasiyalanishi paytida paydo bo'luvchi  $\gamma$  - nurlanishning hosil bo'lishini nazarda tutish lozim.

«Neytral» nurlanish hisoblangan rentgen,  $\gamma$  - nurlanishi va neytronlardan himoyalaniş ancha murakkabdir. Bu nurlanishlarning moda zarrachalari bilan o'zaro ta'sirlashish ehtimoli juda kichik va shu tufayli bu nurlar moda ichiga chuqurroq kirib boradi.

Ikkilamchi effektlarni hisobga olmaganda, rentgen va  $\gamma$ - nurlanish dastasining zaiflanishi Bugerning yorug'likning yutilish qonuni  $I = I_0 e^{-kx}$  ga muvofiq zaiflashadi va u qo'yidagicha ifodalanadi.

$$F = I_0 e^{-ra} \quad (2.6.3)$$

bu erda  $a$  - zaiflanishning chiziqli koeffitsienti,  $r$  - yutilishning molyar ko'rsatkichi.

Erga tashqaridan keluvchi va kosmik nurlar deb ataluvchi turli zarrachalar oqimi ionlovchi ta'sir ko'rsatadi. Bu nurlar 1912 yildayoq aniqlangan edi. Kosmik nurlar ikkiga birlamchi va ikkilamchi nurlarga bo'linadi.



Er atmosferasi chegarasiga birlamchi kosmik nurlanish dunyoviy fazo va quyoshdan keladi. U 92,9 % protonlar va 6,6%  $\alpha$  - zarrachalardan iborat. Tarkibining ko'pchilik qismi protondan iborat bo'lishiga qaramay bu nurlanishning taxminan 50% energiyasi tartib nomeri  $Z>1$  bo'lgan yadrolar tashiydi.

Ikkilamchi kosmik nurlanishlar er atmosferasiga kiruvchi atom yadrolari bilan birlamchi nurlanishlarning o'zaro ta'sirlashishi natijasida hosil bo'ladi. Bu nurlanishlarda amalda barcha ma'lum elementar zarrachalar uchraydi.

Ko'pchilik birlamchi kosmik nurlanish zarrachalarining energiyasi  $10^9$  eV dan katta, ayrim zarrachalar uchun esa  $10^{21}$  eV dan yuqorirok bo'lishi mumkin. Erga etib keluvchi kosmik nurlanishning umumiy quvvati 1,5 GVt atrofida, lekin u quyosh erga berayotgan energiyaga nisbatan nihoyatda kichikdir. YUqoridagilarga asosan DRG3-02 dozimetrini tuzilishi va ishlash printsipi bilan tanishish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Chunki bu dozimetr tuzilishi va ishlatilishi jihatidan oddiy laboratoriya dozimetri bo'lib hisoblanadi.

**DRG 3-02 dozimetrining tuzilishi va ishlash printsipi:** Dozimetr DRG 3-02 laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida rentgen va gamma - nurlanishlarining ekspozitsion dozalari quvvatini o'lchashga mo'ljallangan [17].

Dozimetrning ekspluatatsiya va sinash rejimi normalari «GOST 2226182» ga asosan 4- guruh priborlarining iqlimiy va mexanikaviy sinash talablariga javob beradi.

**Dozimetrning asosiy texnik xarakteristikasi:** Dozimetr rentgen va gamma - nurlanishlarining ekspozitsion dozalari quvvatini qo'yidagi energiya diapazonida ya'ni  $3,210^{-15}$  -  $480 \cdot 10^{-15}$ J (20-3000 keV) gacha o'lchashni ta'minlaydi. Dozimetrning ekspozitsion dozalar quvvatini o'lchash diapazoni  $0-25,8 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-100mkR/s) gacha bo'lib uni o'lchashni kichik diapazonlarga bo'lish mumkin:  $0-0,0258 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-0,1 mkR/s);  $0-0,0774 \cdot 10^{-9}$  A/kG (0-0,3 mkR/s);  $0-0,258 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-1 mkR/s);  $0-0,774 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-3 mkR/s);  $0-2,58 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-10 mkR/s);  $0-7,74 \cdot 10^{-9}$ A/kG (0-30 mkR/s);  $0-25,8 \cdot 10^{-9}$  A/kG (0-100 mkR/s); **Izoh.** Dozimetr «mkR/s» birligi bo'yicha darajalangan.

Dozimetrning o'lchashdagi ruxsat etilgan asosiy xatolik chegarasi, tegishli diapazondagi shkalalarning oxirgi qiymatlariga nisbatan kichik diapazonlarda 0,1 va 0,3 mkR/s o'lchash chegaralarida  $\pm 15\%$ , boshqa barcha kichik diapazonlarda esa  $\pm 10\%$  ni tashkil qiladi.

Rentgen va gamma - nurlanishlarning  $3,2 \cdot 10^{-15}$ - $480 \cdot 10^{-15}$ J (20-3000 keV) chegarasida o'zgarishidagi dozimetrning energiyasiga bog'liq xatoligi, nurlanish energiyasi  $200 \cdot 10^{-15}$ J (1250 keV) (kobalt - 60) ga nisbatan  $\pm 25\%$  ni tashkil etadi.

Dozimetrning ish diapazonidagi rentgen va gamma - nurlanish energiyasining sezuvchanlik anizotropiyasi 3,5n sr. fazoviy burchak chegarasida  $\pm 25\%$  ni tashkil qiladi.

O'lchanadigan nurlanishning statistik xarakteriga ko'ra dozimetrning variatsiya koeffitsienti ko'rsatkichi birmuncha sezuvchanlik diapazonida kamida 20% ni tashkil etadi.

Dozimetr o'lchash sxemasining nol dreyfi (xaotik harakati) 4 soatlik ish jarayonida, o'lchash pribori strelkasining maksimal siljishiga nisbatan 2 % dan oshmaydi. Dozimetrning ish rejimiga moslashish vaqti 3 daqiqadan oshmaydi. Dozimetrning uzluksiz ishlash vaqti 8 soat bo'lib hisoblanadi. Dozimetrning uzluksiz 8 soat ishlash vaqtidagi nostabil ko'rsatkichi  $\pm 10\%$  dan oshmaydi.

Dozimetr ko'rsatkichining barqarorlashishi (0-0,1) mkR/s diapazonida 10 s, (0-0,3) mkR/s diapazonida 3s va qolgan barcha diapazonlarda esa 1,5 s ni tashkil qiladi.

O'zgaruvchan tok zanjiridagi nominal qiymatga ega bo'lgan kuchlanish orqali ta'minlangan dozimetrning iste'mol quvvati 2,2 Vt. RTs-85 elementlari yordamida ishlaganda dozimetrning iste'mol tok kuchi 20 mA. Dozimetrda diametri 39 mm va balandligi 20 mm bo'lgan havo ekvivalentli ssintillyator (yorug'lik chaqnashi yuz beradigan lyuminofor) foydalaniladi. Dozimetrning radiatsion resursi kamida  $10^3$ J/kG ( $10^3$  rad) tashkil etadi.

Ssintilyator va fotoko'paytirgichning fotokatodi yorug'lik zatvori (qulfi) bilan ajratilgan. Zatvorning ochiq va yopiq holatlarida fotokatodga tushuvchi yorug'lik oqimining nisbati kamida 100 ga teng. O'lchash pulti va qayd qiluvchi

blokni ulovchi kabelining uzunligi  $2\pm 0,1$ m va tarmoq kabelining uzunligi  $3\pm 0,1$  m ni tashkil qiladi.

Dozimetr nominal kuchlanishi 220V, chastotasi  $50\pm 0,5$  Gs bo'lgan o'zgaruvchan tok tarmog'idan taminlanadi, chastotaning chetga chiqish miqdori 5 % va kuchlanish -33 - +22V gacha yoki RS-58 tipida 10 simob - qo'rg'oshinli elementlariga ruxsat etiladi. ET2.709.001 ta'minlash komplekti tarkibidan dozimetрни taminlash uchun D- 0,26 S tipidagi 10 ta akkumulyatorlardan foydalanish ruxsat etiladi.

RTS-85 tipidagi elementlardan bir komplekti dozimetрни kamida 300 soatgacha ishlashini taminlaydi.

Ssintillyator geometrik markazi detektorlash blokining bo'ylama o'qiga uning chetki qismlaridan ( $11,7\pm 0,6$ ) mm masofada o'rnatilgan. O'lchash davrida dozimetrning normal holda turishi uchun boshqarish organlari joylashgan yuza paneli yuqorida gorizontal holatda bo'lishi shart. Dozimetrning ekspluatatsiya jarayoni normal atmosfera bosimi sharoitida moslashtirilgan.

Dozimetrning belgilangan vaqtda ishlash qobiliyati va stabil (turg'un) ishlashini tekshirish uchun u T-19 tipidagi kontrol manbalari (stronsiy -90, Ittiriyy-90 beta-manba) bilan komplektlashtiriladi. Dozimetr o'lchovining ruxsat etilgan qo'shimcha xatoliklar chegaralari qo'yidagicha:

- $+20^{\circ}\text{S}$  ga nisbatan termometrning ko'rsatishida -10 -  $+40^{\circ}\text{S}$  gacha temperaturalarni o'zgarishida  $\pm 20\%$ ;

- $+30^{\circ}\text{S}$  temperaturada nisbiy namlikni 90% gacha o'zgarishida  $\pm 10\%$ ;

- ta'minlash kuchlanishining nominal qiymatdan +10 - -15 % o'zgarishida  $\pm 10\%$ ;

- kuchlanganligi 318,4 A/m (4E) gacha bo'lgan doimiy magnit maydonida ishlaganda  $\pm 10\%$ ;

- nurlanish intensivligi  $10 \text{ Vt/m}^2$  gacha bo'lgan O'YUCH - nurlanish maydoni bilan ta'sir etganda  $\pm 10\%$ ;

- ruxsat etilgan chegaraviy rentgen va gama - nurlanishlar quvvati  $2,110^{-10}$  A/kg (0,8 mkR/s) effektga nisbatan va ruxsat etilgan chegaraviy tez neytronlar oqimining zichligi 20 neytron/sm<sup>2</sup> tasirida  $\pm 1$  %.

Dozimetrning ishga yaroqsiz bo'lish muddati kamida 3500 soat. Dozimetrning o'rtacha xizmat muddati 8 yil. YUqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu mavzuni o'rganishda imkoniyatga qarab qo'yidagi dozimetrlarni ham tuzilishi va ishlatish sohalarini o'rganish tavsiya etiladi.

Ko'rsatishi 16 mkR/soat bo'lgan SBM -20 Geyger hisoblagichli «Sosna» batareyali dozimetr - radiomet, «Soeks 01 - M» zamonaviy shaxsiy dozimetr, «Radex RD1706» dozimetrii va zamonaviy radiatsiyani to'g'ridan - to'g'ri qayd



SBM -20 Geyger hisoblagichli «Sosna» dozimetr – radiometrining

umumiy ko'rinishi  
qiluvchi «AES» shaxsiy



«Soeks 01-M» shaxsiy dozimetrning umumiy ko'rinishi

dozimtrlari va h.k.

<p>UZT – 31 apparati tibbiyotning qaysi soxalaridan ishlatiladi?</p>	<p>*UZT-31 apparati tibbiyotning davolash soxasining quyidagi soxalarida ishlatiladi: akusherlik – ginekologik kasalliklarni davolashda qamda otorinkologiyada, stomotologiyada, dermatologiyada ishlatiladi.</p>	<p>UZT-31 apparati tibbiyotning davolash soxasining quyidagi soxalarida ishlatiladi: akusherlik – ginekologik, stomotologiyada</p>	<p>UZT-31 apparati tibbiyotning davolash soxasining quyidagi soxalarida ishlatiladi: dermatologiyada, otorinkologiyada</p>	<p>UZT-31 apparati tibbiyotning davolash soxasining quyidagi soxalarida ishlatiladi: ginekologik kasalliklarni davolashda ishlatiladi.</p>
<p>Ultratovush to‘lqinlarining bioorganizmga ta’sir qilish chuqurligi.</p>	<p>*1... 300 mm.</p>	<p>1 m.</p>	<p>500 sm.</p>	<p>300 sm.</p>
<p>Elektroetsifal ograf apparatlari tibbiyotning qaysi soxasida va nima uchun ishlatiladi?</p>	<p>*Elektroetsifal ograf apparatlari tibbiyotning tashxis qo‘yish soxasida ishlatiladi va ular yordamida bosh miya biopotentsiali o‘lchanadi.</p>	<p>Elektroetsifal ograf apparati yurak ish faoliyatini o‘rganish uchun ishlatiladi.</p>	<p>Elektroetsifal ograf o‘pka ish faoliyatini o‘rganish uchun ishlatiladi.</p>	<p>Elektroetsifal ograf buyrak ish faoliyatini ishlatish uchun ishlatiladi.</p>
<p>Doza quvvati deb nimaga aytiladi?</p>	<p>*Doza quvvati deb, 1 gr bioorganizmga bir birlik vaqt ichida ta’sir qiluvchi quvvatga aytiladi.</p>	<p>Doza quvvati deb, 1 gr bioorganizmga bir soat ichida ta’sir qiluvchi quvvatga aytiladi.</p>	<p>Doza quvvati deb, 1 gr bioorganizmga bir sutkada ichida ta’sir qiluvchi quvvatga aytiladi.</p>	<p>Doza quvvati deb, 1 kg bioorganizmga bir vaqt birligi ichida ta’sir qiluvchi quvvatga aytiladi.</p>

<p>Atomlarning o'z o'zidan nurlanish xususiyatini tushuntirib bering.</p>	<p>*Aktiv element atomlari tashqaridan berilgan yoruqlik nuri asosida, fotonlarni yutib, yutilgan energiya miqdoriga qarab yuqori satxda taqsimlanadi. Atomlar yuqori satxda uzoq muddat tura olmaydi, ma'lum vaqt o'tishi bilan ular yuqori satxdan pastki avvalgi satxga tusha boshlaydi. SHu tushish jarayonida atomlar yutgan energiyasini yoruqlik nuri, boshqacha qilib aytganda fotonlar xolatida qaytarib beradi. Bu xolga atomlarning o'z o'zidan nurlanish xolati deb yuritiladi.</p>	<p>O'z o'zidan nurlanish xolatiga atomlarni majburiy nurlanish xolati deb aytiladi.</p>	<p>Atomlarni o'z o'zidan nurlanish xolatiga lazer generatsiyasi deb aytiladi</p>	<p>Atomlarni o'z o'zidan nurlanish xolatiga lazer generatirining erkin generatsiya rejimi xolati deb aytiladi.</p>
---	---	---	--	--

<p>Nurning intensivligi nimaga teng?</p>	<p>*Nur intensivligi deb, yoruqlik nuri oqimining bir yuza birligidan bir vaqt birligi ichida oqib o'tgan nur oqimiga aytiladi.</p>	<p>Nur intensivligi deb, yoruqlik nuri oqimining bir sm<sup>2</sup> yuzadan bir minutda oqib o'tgan nur oqimiga aytiladi.</p>	<p>Nur intensivligi deb, yoruqlik nuri oqimining bir m<sup>2</sup> yuzadan bir soatda oqib o'tgan nur oqimiga aytiladi.</p>	<p>Nur intensivligi deb, yoruqlik nuri oqimining bir sm<sup>2</sup> yuzadan bir kunda oqib o'tgan nur oqimiga aytiladi.</p>
<p>Lazer nurlarini nima uchun monoxromatik nurlar deyiladi?</p>	<p>*Lazer generator nurlari to'liq uzunligi bir xil bo'lgani uchun ular monoxromatik nurlar deyiladi.</p>	<p>Lazer generator nurlari majburiy nurlar bo'lgani uchun monoxromatik nurlar deyiladi.</p>	<p>Lazer generator nurlari polarizatsiyalangan nurlar bo'lgani uchun ular monoxromatik nurlar deyiladi.</p>	<p>Lazer generatori yuqori quvvatli nurlarga ega bo'lgani uchun bu nurlarga monoxromatik nurlar deyiladi.</p>
<p>YOrug'lik nuri tarkibida qanday polarizatsiyalangan nurlar bor?</p>	<p>*YOrug'lik nuri tarkibi quydagi polarizatsiyalangan nurlardan iborat: ko'ndalang polarizatsiyalangan nurlar, sirkulyar polarizatsiyalangan nurlar va elliptik shaklda polarizatsiyalangan nurlar.</p>	<p>YOrug'lik nuri tarkibi faqat ko'ndalang polarizatsiyalangan nurlardan iborat.</p>	<p>YOrug'lik nuri tarkibi faqat sirkulyar polarizatsiyalangan nurlardan iborat.</p>	<p>YOrug'lik nuri tarkibi faqat elliptik shaklda polarizatsiyalangan nurlardan iborat.</p>



2.60 - Rasm. «Radeks RD1706» shaxsiy dozimetrlning umumiy ko'rinishi



2.61 - Rasm. «AES» shaxsiy dozimetrlning umumiy ko'rinishi

#### 4-mavzu. Galvanizatsiya

##### 4-amaliy. Diadinamik toklar

**Ishdan maqsad:** Elektroensefalografiya, reoensefalografiya, elektromiografiya, exoensefalografiya, bosh miyani skanner qilish apparatlarini o'rganishdan iborat.

**Vazifa;** SNIM-1, MODEL-717, DT50 - 4, «TONUS - 2M» ON 0968720 - 77 apparatlari tuzilishi va ishlash prinsipi o'rganish.

Hozirgi zamon tasavvurlariga binoan bosh miyaning po'stloq qavati 14 milliarddan ziyodroq nerv hujayralari va 100 ming milliard hujayralararo aloqalar mavjudki, bular insonning aqliy va ma'naviy mohiyatini belgilaydi. Bosh miya nihoyatda ko'p neyron zanjiridan iborat bo'lib, 25 Vt gacha bo'lgan quvvatga ega. U o'zining quvvati bilan 1 soatda 6,2 gramm glyukozani, 3 litr kislorodni



kuydiradi va o'zida 1 trilliard - bit ma'lumot saqlash qobiliyatiga egadir. Holbuki hozirgi zamon kompyuterlari faqatgina 80 - 100 mln. - bit axborotni saqlashga qodir. Hozirgi paytda xotira, og'riq, his - hayajon, quvonch kabi jarayonlar asosida yotadigan o'zgarishlar to'g'risida anchagina bilimga ega bo'lmoqdamiz. Bu bilimlar bizga asab kasalliklarida yuz beradigan bioximik va biofizik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Keyingi yillarda nevrologiyada ko'pgina yangiliklar yuz berdi, yangi tekshiruv usullari paydo bo'ldi. Elektroensefalografiya, reoensefalografiya, elektromiografiya, exoensefalografiya, bosh miyani skanner qilish va hokazolar klinikalarda qo'llanishga taqdim etildi. Bularning barchasida tok va elektromagnit maydonlar ta'sirida to'qimalarda kechadigan fizik jarayonlar haqidagi bilimlar asos soldi. Biz bilamizki barcha moddalar molekulalardan iborat, ularning har biri zaryadlar sistemasini tashkil etadi. SHuning uchun jismlarning holati ulardan oqib o'tuvchi tok va elektromagnit maydon ta'siriga bevosita bog'liq. Biologik jismlarning elektr xossalari esa jonsiz ob'ektlarning xossalari qaranganda ancha murakkab, chunki organizm fazoda o'zgaruvchan konsentratsiyali ionlar to'plamidir.

Toklar va elektromagnit maydonlarning organizmga ta'sirining birlamchi mexanizmi - fizik mexanizm bo'lgani uchun bu amaliy ishda uni tibbiy davolash uslublaridan biri, diadinamik tokning tasirini qo'llash ko'rib chiqiladi. Organizmga o'zgaruvchan tokning ta'siri uning chastotasiga bevosita bog'liq. Past tovush va UT chastotalaridagi o'zgaruvchan tok o'zgarmas tok kabi biologik to'qimalarga qo'zg'atish ta'sirini ko'rsatadi. Bunga elektrolitlar eritmalaridagi ionlarning siljishi, ularning bo'linishi, hujayra va hujayralararo muhitda konsentratsiyalarning o'zgarishi sabab bo'ladi. To'qimalarning qo'zg'alishi impulsli tokning shakliga, impulsning davomiyligiga va uning amplitudasiga bog'liq bo'ladi[2].

Elektr toki fiziologik ta'sirining o'ziga xosligi impulslarning shakliga bog'liq bo'lgani uchun, tibbiyotda markaziy nerv sistemasini (elektr bilan uxlatish, elektrnarkoz), nerv - muskul sistemalarini, yurak qon tomir sistemalarini

(kardiostimulyatorlar, defibrillyatorlar) va hokazolarni qo'zg'atish maqsadida vaqtga bog'liqligi har xil bo'lgan toklardan foydalaniladi.

Diadinamik tok bilan davolovchi SNIM-1, MODEL-717, DT50 - 4, «TONUS - 2M» ON 0968720 - 77 apparatlari og'riqli holatlarda va turli asab -muskul kasalliklari terapiyasida qo'llanish uchun mo'ljallangan [3]. Diadinamik tok bilan davolovchi bunday og'riqli nerv kasalliklari qo'yidagilar bo'lib hisoblanadi.

Radikulit - orqa miyadan chiquvchi ildizchalarning infeksiyon - allergik yallig'lanishidir.

Mushak og'riqi (emalgiya) - mushaklarning qisilishi, yallig'lanishi yoki ishemiyasi. Zararlangan mushaklarda kuchli og'riq bo'lishi.

Bel umurtqalari ostexondrozi - nerv ildizchalari chiquvchi sohalarda osteofitlar ya'ni kalsiy tuzlarining yig'ilishi natijasida og'riqlarning kuzatilishi vahokazolar bo'lishi mumkin. Apparat o'yda, poliklinikalarda, shifoxonalarda, profilaktik - davolovchi tashkilotlarda sihatgoh va fizioterapevtik kabinetlarda ishlatish uchun mo'ljallangan.

**«TONUS - 2M» apparati qo'yidagi sharoitlarda ekspluatatsiya qilinishi mumkin:** havo harorati  $+10^{\circ}$  S dan to  $+35^{\circ}$  S darajada bo'lishi kerak, havoning nisbiy namligi  $65 \pm 15$  %, atmosfera bosimi  $750 \pm 30$  mm.sim.ust. darajada, elektr kuchlanishi  $220V \pm 10$  %, tok chastotasi 50 Gs.


**Texnik ma'lumotlari:** «TONUS - 2M» apparati bitta mijozga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan. Apparat diadinamik tokning etti turini etkazib beradi. Tokning bu ko'rinishlari grafik tarzida rasmlarda tasvirlangan.

Normal holatdagi nominal nagruzka  $500 \text{ Om} \pm 5$  % teng va tok kuchi  $5 \text{ mA} \pm 10\%$  bo'lganda DX ko'rinishidagi chiqish tokining doimiy tashkil etuvchisi ko'pchilik qismini tashkil etadi. DB ko'rinishidagi chiqish tokini doimiy tashkil etuvchisi qiymatini oshiruvchi tokning miqdori 15 mA dan oshmagan holda, apparatning himoya qurilmasi uning chiqish tokiga qisqa tutashuv hosil qiladi. CHiqish toki regulyatori nolinch holatda bo'lganda, apparatni yoqish kaliti yordamida manbaga ulanganda ham uning blokirovka moslamasi chiqish tokini uzatishni to'xtatadi.


Qarama - qarshi pereklyuchatel apparatning chiqish toki yo'nalishini o'zgartirishga imkon beradi. Apparat 5 soat davomida uzluksiz ishlay oladi. Apparatning 500 soat ichida shartli - uzluksiz ishlash davridagi buzilmasdan ishlash ehtimolligi  $R = 0,8$  dan kam bo'lmashligi kerak. Apparatni ish qobiliyatini yo'qotganligi uchun hisobdan chiqarish kamida 4 yildan so'ng amalga oshiriladi. Apparatning tok manбайдan oladigan istemol quvvatini  $40 Vt$  dan oshirmaslik kerak.

Biryarimdavrli uzluksiz (ON) - 50 Gs chastotali eksponensial qirqimli sinusoidal formadagi tok impulslari


Ikkiyarimdavrli uzluksiz (DN) - 100 Gs chastotali eksponensial qirqimli



sinusoidal formadagi tok impulslari




Biryarimdavrli ritmik (OP) - ON ko'rinishidagi tok impulslari seriyasi



Qiska davr (KP) - ON ko'rinishidagi tok impulslari seriyasining DN ko'rinishli tok impulslari seriyasi bilan almashinishi

Uzoq (Uzun) davr (DP) - ON ko‘rinishidagi tok impulslar seriyasining almashinishi va DN ko‘rinishidagi tok impulslari seriyasigacha to‘ldirilishi egiluvchan bo‘lib, noldan to ON ko‘rinishidagi tok amplitudasigacha ortadi, bu qiymatni ancha saqlab yana qaytib nolga tushishi

Bir yarimdavrli to‘lqinli (OV) - ON ko‘rinishidagi tok impulslari seriyasi, egiluvchan bo‘lib noldan maksimal darajagacha ko‘tarilib, bu qiymatni ma‘lum vaqtgacha saqlaydi, so‘ngra yana qaytib nolgacha tushishi



Ikki yarimdavrli to‘lqinli (DB) - DN ko‘rinishidagi tok impulslari seriyasi, egiluvchan bo‘lib qaysiki noldan maksimal darajagacha ko‘tarilib, bu qiymatni ma‘lum vaqtgacha saqlaydi, so‘ngra yana qaytib nolgacha tushishi


Apparatning sof og‘irligi komplekt va sumkadan tashqari 5 kG dan oshmaydi. Apparatning gabarit hajmi (315 x 300 x 110 mm).

### **Apparatning tuzilishi va ishlash prinsipi**

Apparat olib yurishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning korpusi zarbga chidamli polistroidan tayyorlangan bo‘lib u to‘rtta vint bilan mahkamlangan qopqoq va asosdan iborat, vintlar asos tomonidan ochilib yopiladi. Olib yurishga qulay bylishi uchun korpus bilan yaxlit tayyorlangan dastak mavjud. Dastak tomonidan maxsus joy (quticha) bo‘lib, qopqoq bilan yopiladi.

Bu joy orqali mijozga ulanadigan kabel va manba shnuri chiqarilgan bo‘lib, apparatni ko‘chirishda shnurlar yig‘ishtirilib shu qutichaga joylashtiriladi. Qutida predoxranitel o‘rnatilgan bo‘lib, chiqadigan tok shu erdan boshqariladi. Qurilmaning himoyalanihi shu zanjir yordamida tekshiriladi. Gnezdo va predoxranitel qopqoq bilan yopilgan.

**Apparatning yuzgi qismida (panelida) qo‘yidagilar joylashgan:** 1-avariya holatida yonadigan qizil lampali indikator; 2 - tok ulagich yordamida apparatni tokga ulanganligini ko‘rsatadigan yashil yonuvchi indikator; 3- chiqish toki regulyatorining ruchkasi, u mijoz zanjirida tokni silliq o‘zgartirish uchun xizmat qiladi, ruchkaning yuqorisida «◀» belgisi va ostida «mijoz toki» deb ko‘rsatilgan; 4- elektr tokini ulash va o‘chirish uchun tugmali buragich mavjud bo‘lib uning ustida «vkl» va «v̄vkl» yozuvlari ko‘rsatilgan; 5 - tok turlarini o‘zgartiruvchi pereklyuchatel, uning ustiga DN, ON, OR, KP, DP, OV, DB deb yozib qo‘yilgan; 6 - chiqish toki yo‘nalishini o‘zgartirish uchun xizmat qiluvchi qarama - qarshi o‘zgartirish (polyarnost) pereklyuchateli, pereklyuchatel knopkasi ustiga «+» va «-» ishoralari qo‘yilgan. 7- milliampermetr, mijoz zanjiridagi tokni o‘lchash uchun xizmat qiladi.



«TONUS - 2 M» apparatining old tomondan ko‘rinishi

YUqorida ko‘rsatilgan qisqa va uzun davrlarga modullashgan, har xil chastotali (50 va 100 Gs) yarim sinusoidal toklarni davolash maqsadida ishlatish tibbiyotda **diadinamoterapiya** nomini oldi. Ushbu toklarning almashinuvi tufayli keng ta’sir diapazoniga erishiladi va to‘qimalarning ularga moslashishi kamayadi. Diadinamoterapiya apparatlari yordamida hosil qilinadigan 7 turdagi toklarning ta’siri qo‘yidagicha izohlanadi.

1. Biryarimdavrlı uzluksız (ON) - 50 Gs chastotali eksponensial qirqimli sinusoidal formadagi tok impulslari bo‘lib, uning qo‘zg‘atuvchi va ta’sirlovchi

xususiyati bor. Muskullar qisqarishi natijasida bemor elektrod ostida «kuchli» vibratsiyani sezadi, muskullar elektrostimulyasiyasi uchun ishlatiladi.

2. Ikkiyarimdavrlı uzluksız (DN) - 100 Gs chastotalı eksponensial qirqimli sinusoidal formadagi tok impulsları bo'lib, uning ta'sirida terining tok o'tkazuvchanligi oshadi, tez og'riqsizlantiruvchi samara beradi. Muskul fibrillari qisqarishi natijasida bemor engil vibratsiyani sezadi. Og'riq sindromini bartaraf etish va spazmlarning oldini olish uchun ishlatiladi.

3. Biryarimdavrlı ritmik (OP) - ON ko'rinishidagi tok impulsları seriyasi bo'lib, «qisqadavr»-1 va 2 yarim davrlı toklarning har soniyada almashishi. Bemor muskullarning ritmik qisqarishini sezadi (o'ziga xos massaj). Tok qon tomirni kengaytiradi, periferik qon aylanishni yaxshilaydi, moddalar almashinuvini kuchaytiradi.

4. Qiska davr (KP) - ON ko'rinishidagi tok impulsları seriyasining DN ko'rinishli tok impulsları seriyasi bilan almashinishi. «Uzun davr» bir necha soniya oralab (1 davr davomiyligi 12-16 soniya) almashishi. Bu tok og'riqsizlantirishdan tashqari perinevral shishlar, infiltratlar, qontalashlar, trofik jarayonlarni stimullaydi.

5. Uzoq (Uzun) davr (DP) - ON ko'rinishidagi tok impulslar seriyasining almashinishi va DN ko'rinishidagi tok impulsları seriyasigacha to'ldirilishi egiluvchan bo'lib, noldan to ON ko'rinishidagi tok amplitudasigacha ortadi, bu qiymatni ancha saqlab yana qaytib nolga tushishi (ta'sir davri va pauzasi 1 soniya). U kuchli muskul qisqarishini chaqiradi. SHuning uchun muskullar elektrostimulyatsiyasi uchun ishlatiladi.

6. Bir yarimdavrlı to'lqinli (OV) - ON ko'rinishidagi tok impulsları seriyasi, egiluvchan bo'lib noldan maksimal darajagacha ko'tarilib, bu qiymatni ma'lum vaqtgacha saqlaydi, so'ngra yana qaytib nolgacha tushishi. Bu toklar katta to'lqinsimon kuchlanish amplitudasi va pasayish davomida ta'sirlantiruvchi kuchi kamroq bo'lib, bemor tomonidan engil qabul qilinadi.

7. Ikki yarimdavrlı to'lqinli (DB) - DN ko'rinishidagi tok impulsları seriyasi, egiluvchan bo'lib qaysiki noldan maksimal darajagacha ko'tarilib, bu qiymatni

ma'lum vaqtgacha saqlaydi, so'ngra yana qaytib nolgacha tushadi. Bir davrli tok to'lqinlariga nisbatan muloyim ta'sir qiladi. SHuning uchun uni yaqqol ifodalangan og'riq sindromida tavsiya qilinadi.

**Ko'rsatma:** periferik nerv zararlanishida, qon aylanishi buzilishiga asoslangan og'riq sindromlari, umurtqa pog'onasi va bo'g'imlar degenerativ-distrofik zararlanishlar, neyrotomir vegetativ buzilishlar, trofik buzilishlar, shishlar, chandiqli va muskul kontrakturalar.

**Qarshi ko'rsatma:** teri butunligi buzilishi, keng tarqalgan dermatitlar, induvidual tokni ko'tara olmaslik, rentgenoterapiyadan keyingi holat (2 hafta o'tmagan bo'lsa). **Nisbiy qarshi ko'rsatma:** -Hosilali kasalliklar -Qon ketishga moyillik -Homiladorlik 2- yarmi.

### **5-amaliy. Ultrayuqori chastotali terapiya**

**Ishdan maqsad:** Elektroterapiya usulida elektr toki va elektromagnit maydonlarining yuqori (YUCH), ultrayuqori (UYUCH) va o'tayuqori (O'YUCH) chastotalaridan foydalaniladigpn apparatlarni o'rganishdan iborat.

**Vazifa;** «MINITERM UYUCH - 5 - 1», UVCH-200, UVCH-300 apparatlari **tuzilishi va ishlash prinsipi** o'rganish.

O'zgaruvchan elektr maydonida joylashgan to'qimalarda siljish toklari va o'tkazuvchanlik toklari paydo bo'ladi. Odatda bu maqsad uchun ultrayuqori chastotali (UYUCH) elektr maydonlari ishlatiladi, shuning uchun tegishli fizioterapevtik metod UYUCH - terapiya (ruscha UVCH - terapiya) nomini oldi. UYUCH maydon ta'sirini effektivligini baholash uchun o'tkazgichlarda va dielektriklarda ajraluvchi issiqlik miqdorini hisoblash lozim.

Elektroterapiya usulida elektr toki va elektromagnit maydonlarining yuqori (YUCH), ultrayuqori (UYUCH) va o'tayuqori (O'YUCH) chastotalaridan foydalaniladi. Davolash maqsadida qo'llaniladigan o'zgaruvchan elektrik tebranishlari, to'lqin uzunliklari va chastotalari bilan xarakterlanadi. Bu

parametrlariga bog'liq bo'lgan elektromagnit tebranishlari organizmda fiziologik ta'sirini belgilaydigan YUCH, UYUCH va O'YUCH chastotali diapazonlarga bo'linadi.

Turli chastotali elektromagnit maydon bilan ta'sir etganda, elektromagnit maydon chastotasini va unga bog'liq bo'lgan yutilish asoslarini (to'qimalarning dielektrik xossalarini) aniqlaydigan organizm to'qimalariga fiziko - ximiyaviy jarayonlar yuzaga keladi.

YUCH, UYUCH va O'YUCH - li elektr toki va maydonlari ta'sirida, tirik organizm to'qimalarida zaryadli jihatidan qarama - qarshi bo'lgan ion va molekullarni qutblarda siljishini yuzaga keltiradi. Zaryadlangan zarrachalarni tebranma harakati natijasida to'qimalar ichida issiqlik yuzaga keladi, bu esa o'zgaruvchan elektr maydoni energiyasini tirik ob'ektning yutilishi asosida vujudga kelishini ko'rsatadi. Issiqlik yuzaga kelishi bilan bir qatorda, o'zgaruvchan tokning issiqlik bo'lmagan (tebranishli) YUCH, UYUCH va O'YUCH - li ta'sirida to'qimalarda murakkab fiziologik jarayonlar hisoblangan -strukturani o'zgarishi vujudga keladi. Harbir chastotalar diapazoni (YUCH, UYUCH O'YUCH) alohida tebranishli effektlarga xos bo'lib u yuqori chastotali ta'sir faktorlarini o'ziga xosligini belgilaydi.

**UYUCH - terapiya** - ayniqsa UYUCH - li 40,68 va 27,6 MGs quvvati 1 - 50 Vt gacha bo'lgan elektrik (va past darajadagi magnit) maydonlari bilan mijoz to'qimalariga masofadan uzluksiz va impulsli ta'sir ko'rsatuvchi davolash usuli bo'lib hisoblanadi.

Elektr maydonining UYUCH - li ta'sirida suyuq (elektr toki o'tkazuvchi) muhitlarda yo'nalishdagi ionlar tebranishini, to'qimalar - dielektrlarda -elektronlar va yadroning tebranishini va molekullarning aylanma harakatini vujudga keltiradikim, buning natijasida issiqlik yuzaga keladi.

Elektr maydoni energiyasini ayniqsa dielektrik singdiruvchanligi past bo'lgan to'qimalar (suyak, nerv, miya va kemirchak to'qimalar) ko'proq yutadi, chunki ular energiyani chuqurroq singib kirishiga imkon yaratadi. Elektr maydonining UYUCH - li tasirida issiqlikni yuzaga kelishi tana yuzasidagi to'qimalar kabi ichki



to'qimalarda ham birxildir. Turli valentli ionlarning hujayralar orasida va hujayralarning ichki muhitlarida qayta taqsimlanishi va to'qima - dielektriklardagi barcha qutblanishlar «issiqlik bo'lmagan» komponentlar ta'siridan iboratdir.

Zaryadlangan zarrachalarning tebranma harakati to'qimalarning hujayrali va molekulaviy strukturasi fiziko - ximiyaviy o'zgarishni yuzaga keltiradi. UYUCH - li elektr maydonining katta bo'lmagan quvvatiga tebranishli (ossilyatorli) effekt yuzaga keladi. Tananing zararlangan yoki shikastlangan (og'riqli) joyidagi to'qimalarda fizikaviy va ximiyaviy siljishlar vujudga keladi, qon tomirlarining singdiruvchanligi oshadi, qon yurishi tezlashadi, mikrosirkulyatsiya yaxshilanad. UYUCH - li elektr maydonining belgilangan dozasi birlashtiruvchi to'qimalarga yallig'lanishga qarshi ta'sirini, ayniqsa yallig'lanishning o'tkir va o'tkir osti fazalariga ta'sirini aniqlaydi.

UYUCH - li elektr maydoni ta'sirida immunologik jarayonlarning kuchayishi (antitel ishlab chiqishni ko'payishi, buyurak osti bezlarning funksiyasini oshishi, leykotsitlarni emirilish aktivligini oshishi), mahalliy moda almashinish jarayonlari, mikroorganizmlar miqdori va mikroblarni kasalliklarni qo'zgatish xususiyatlarini kamayishi yuzaga keladi. UYUCH - li elektr maydonining birmuncha qoniqtiruvchi ta'siri qon - va limfo - aylanishini kuchaytirishni, to'qimalarni dehidratatsiyasini, nerv sistemasini trofik funksiyasini oshishini, mikrosirkulyatsiya va mahalliy moda almashinishini yaxshilanishini ta'minlaydi.

UYUCH - terapiyasining UYUCH - li elektr maydoni sferasidagi ta'siriga butun organizm qatnashadi. Bu davolash effekti mexanizmida etakchi rolni nerv reflektorli ta'siri o'ynaydi. Mahalliy reaksiyalar bilan parallel holda to'qimalarda mahalliy faoliyati va umumiy adaptatsiyalanishi mexanizmlarini jalb qilish natijasida, organizmning boshqa organ va tizimlarida ham o'zgarishlar bo'ladi. Bu usulning yuqori effektivligiga qaramasdan, yallig'lanish jarayonining forma va bosqichlariga bog'liq holda, undan foydalanish qattiq differensiallangan rejimda bo'lishi shart.

UYUCH - li elektr maydonining yallig'lanishning 1 - chi bosqichiga ta'siri vaqtida (issiqlik dozalari tadbiiq etiladi) odatda dehidradatsiyalovchi ta'sir hisobidan

yallig'lanish reaksiyalarini qamrab olish va shishlarni kamayishi kuzatiladi. YAllig'lanishni 2 - chi bosqichida to'qima elementlarining aktiv emigratsiyasi va yiring paydo bo'lishining ko'payishi, bunga bog'liq holda UYUCH - li elektr maydonini tadbiq qilsak (issiq va past issiq dozalar) faqatgina tolalarda yiring oqimi paydo bo'lishi imkoniyati kuzatiladi. YAllig'lanishning 2- chi va 3 - chi bosqichlarida, o'zaro bog'langan to'qimalar elementlarining aktivlashishi, o'zaro bog'lovchi bar'er (chegarani) larni yuzaga kelishini tezlashtiruvchi o'lgan nekrozlangan to'qimalarning fibroblastlarini (fibrinlangan to'qima) almashinishi vujudga keladi, oxirda tez granullash bilan yallig'lanish o'chog'ini sog'lom to'qimalardan chegaralashni amalga oshiradi.

UYUCH - li elektr maydonining ta'sirini (issiqlik ta'siri bo'lmagan dozalari) ulanma to'qimalarni rivojlanish jarayonida tavsiya etish shart emasligini isobga olish zarur (masalan, o'rta quloqni, halqum shamollashida, kasallikning qaytalangan formasida, giperprofik formasida tumov va hiqqildoqni yiringlashida, operatsiyadan keyingi LOR - organlariga). Bunday kasalliklarda UYUCH - terapiyani boshqa fizikaviy faktorlarga almashtirish afzaldir. UYUCH- ni elektr maydoni quloqni sirtqi yallig'lanishida, burun furunkuliga, o'tkir sinuitga (punksiyadan keyingi ekssudativ formasida), yuz nervini yallig'lanishiga, uchshoxli nervlar nevrалgiyasiga quloq orqasidagi sust granullovchi va boshqa quloq organlarining jarohatiga, tomoq, burunga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

UYUCH - terapiyaning bir qancha otorinologik kasalliklarga ta'sirining afzalliklari, etishish qiyin bo'lgan anatomik xususiyat bilan aloqador organlar (ponasimon bo'shliq, g'alvirsimon labirint va boshqalar) ga bevosita ta'sir etish bo'lib hisoblanadi.


UYUCH - li elektr maydonining manbai elektron - lampali generator bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadda chiqish quvvati 15 - 30 Vt bo'lgan «UYUCH -30» va chiqish quvvati 20 - 70 Vt gacha bo'lgan «UYUCH - 60» apparatlari foydalaniladi. Maydon ta'sirlari masofali uslub asosida, diametrlari 36 va 60 mm bo'lgan kondensatorli plastinkalar yordamida amalga oshiriladi. Kondensator plastinkalari tana yuzasiga parallel holda 0,5 - 6 sm havo oralig'i bilan o'rnatiladi. UYUCH - li

elektr maydonining ta'siri apparatni chiqish quvvati va mijozni issiqlik sezishiga qarab dozalanadi: I doza - issiqlik his etmasdan, chiqish quvvati 15 - 20 Vt; II doza - issiqlikni engil his etish, apparatni chiqish quvvati 20 - 30 Vt; III doza - hisoblangan (belgilangan) issiqlik, chiqish quvvati 30 - 40 Vt; IV doza - ko'rsatilgan issiqlik hissi, chiqish quvvati 40 - 70 Vt. Davolash tadbirining davomiyligi, jarayonning lokalizatsiyasi va kasallikning formasiga bog'liq.

Elektr toki va YUCH, UYUCH va O'YUCH maydonlarining tirik organizm to'qimalariga ta'siri molekula va ionlarni zaryadi bo'yicha qarama - qarshi qutblar bo'yicha ko'chishini vujudga keltiradi. Zaryadlangan zarrachalarning to'qimalar ichidagi tebranma harakati issiqlikni vujudga keltiradi, bu jarayon tirik ob'ektning o'zgaruvchan elektr maydonini yutilishi bo'lib hisoblanadi. Issiqlik yuzaga kelish bilan bir qatorda, o'zgaruvchan tokning YUCH, UYUCH va

O'YUCH ta'sirlari to'qimalardan murakkab biofizik jarayonlarni ya'ni mikrostrukturaning o'zgarishini vujudga keltiradi. Davolash tadbirining davomiyligi kasallikning formasi va jarayonning lokalizatsiyasiga bog'liq.

Organizmدا elektr maydonining UYUCH ta'sirining hal qiluvchi natijalarining asosiy faktorlaridan biri ta'sir dozasi hisoblanadi. «MINITERM UYUCH - 5 - 1» apparatini otorinologiyada foydalanish uchun maxsus konstruksiyalangan, quloqichi, burunichi, yassi va turli diametrli elektrodlar mavjud ki ular yordamida katta bo'lmagan quvvat bilan elektr maydonining juda aniq lokal UYUCH ta'sirini amalga oshiriladi. Metall elektrod bilan mijoz to'qimalari orasi izolyatsiyalangan qoplama bilan aniqlanadi, u 1 - 2 mm bo'lishi kerak. Elektrodlar kerakli holatda maxsus tutqichlar va boshushlagich bilan o'rnatiladi. YAllig'lanish jarayonlarining jiddiy formasida davolash tadbirining davomiyligi 5 daqiqa bo'lib, har bir davolash tadbirida 1 daqiqadan oshirib - 10 daqiqagacha boriladi. Davolash tadbiri har kuni o'tkazilib, uning umumiy soni kasallikning davomiyligi bilan belgilanadi. quloq, tomoq, burun yallig'lanishining uzoq cho'zilgan formasida, davolash tadbirining davomiyligi 10 daqiqa bo'lib, davolashning har bir kursiga umumiy 10 - 15 marta o'tkaziladi.



Apparatning umumiy ko‘rinishi: 1 - korpus; 2 - yuza paneli; 3 - apparatni manbaga ulashni ko‘rsatuvchi indikatsiya lampasi; 4 - apparatni yoqish tugmachasi; 5 - davolash vaqtini belgilovchi soat; 6 - ventilyatsion teshiklar; 7 - apparatni olib yurish dastagi; 8 - manba shnuri; 9 - mijoz konturini sozlash dastagi; 10 - mijoz kabeli gnezdosi; 11 - mijoz kabeli vilkasi; 12 - mijoz kabeli; 13 - chikish quvvatini sozlovchi dastak; 14 - dozimetr pribori; 15 - generator ulanganini ko‘rsatuvchi indikatsiya lampasi

Apparatda davolash tadbiri soati bo‘lib u davolash tadbirlarini vaqti tugashi bilan avtomatik ravishda yuqori chastotalar generatorini ajratadi va tovush signali beradi. Davolash tadbirlari vaqtidagi ustanovkaning xatoligi: 10 daqiqagacha ishlab turganda  $\pm 30$  s, 10 - 30 daqiqagacha ishlaganda esa  $\pm 5\%$  dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Apparat elektr xavfsizligi bo‘yicha II - sinf apparatlari uchun hisoblangan GOST 12.2.02 - 76 talablarini qondiradi va erga ulash himoyasi bilan ekspluatatsiya qilish mumkin. Elektrodlar 1% - li xloramin aralashmasi bilan artib dizenfeksiya qilinadi. Ishdan to‘xtab qolishi kamida 650 soat shartli - uzluksiz ishlashida bo‘lishi mumkin. Xizmat muddati kamida 5 yil hisoblanadi.

**Biologik xususiyati:** Odam organizmidagi to‘qimalar elektr o‘tqazish xususiyatiga ega, jumladan qon, limfa va parenximatoz organlar. Elektr energiyasi issiqlik va kimyoviy energiyaga ega bo‘ladi. Tebranish natijasida (ion, elektrod,

atom, molekula) tok o'tkazuvchi organlardan tok o'tkazilishi hosil bo'ladi. Tok o'tmaydigan organlar dielektrik organlar deyiladi - teri, yog', suyak, nerv stvoli, qattiq biriktiruvchi to'qima, tog'ay kiradi. Bularga elektr energiya natijasida ossilyar maydon hosil qiladi.

**Ta'sir mexanizmi:** Organizm to'qimalarida, hujayra va molekulalarida tok ta'sirida o'ziga xos fizik va kimyoviy o'zgarishlarga olib keladi. SHu bilan birga murakkab oqsillarni va fermentlarni ishini oshiradi. Va bosh miyaga reflektor tarzda etkazib beradi. Nerv o'tkazuvchanligini sekinlashib tinchlantiruvchi va og'riq kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari yallig'lanishga, degenerativ hamda travmatik shikastlanishlarda muhim ahamiyatga ega. Bosh miyaga qo'yilgan elektr plastinka UVCH miyadagi oqsil funksiyasini o'zgartirib, ichki sekretsiyaga ta'sir qiladi. Gipofizar - buyrak usti bezi ishini stimullaydi.

- Tonus oshiruvchi xususiyati: ya'ni parasimpatik nervlar tonusini oshiradi, yurak sistemasida simpatik nervni tormozlaydi.

- UYUCH - ushbu tok o'tkir yallig'lanish kasalliklarida ya'ni ekssudatning kamayishi hisobidan va yallig'langan to'qimaning qayta degeneratsiyalanish hisobidan yaxshilanadi, so'ng shu erdagi retikuloendotelial tizimga ta'sir qilib, qon aylanishini yaxshilaydi, fagotsitozni kuchaytiradi.

- Patologik o'choqdagi bakteriyalar yashovchanligini pasaytiradi. qoldiq mahsulotlarni surilishini bartaraf etadigan - immunobiologik protsess hisoblanadi.

- Arteriya va kapillyar qon tomirlar tonusini kamaytiradi, qon bosimini tushiradi, qon aylanishini yaxshilaydi. Kam hollarda bradikardiyaning chaqiradi.

- Buyrak sohasida UVCH ko'ptokchalar funksiyasini yaxshilaydi, oqsil almashinuvini kuchaytiradi. Buyrakda qon aylanishi tiklanadi.

- Qon tomirlar spazmini bartaraf etadi.

- Metabolik jarayonni kuchaytiradi, uglevod va oqsil almashinuvini yaxshilaydi.

- UYUCH markaziy asab tizimini tormozlanish xususiyatini kuchaytiradi, tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

- Qo'zg'aluvchan ta'sirga ega. MNT da trofikani kuchaytiradi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu fizikaviy faktorlar og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, qon tomirlarni kengaytiruvchi, spazmga qarshi, stimulyasiya va degeneratsiya xususiyatiga ega. Bu usul boshqacha qilib aytganda, elektr davolash deb aytiladi.

**UYUCH apparati** 2 xil bo‘ladi: portativ va statsionar.

1.Portativ apparatlar: UVCH-30, UVCH-62, UVCH-4, UVCH-66 va h.k.

2.Statsionar apparatlar: UVCH-200, UVCH-300, ekran-1, ekran-2 va boshqalar bo‘lib hisoblanadi.

Kondensator plastinkasi metall, qoplovchi va izolyasiyalangan (rezina) shisha, plastmassadan iborat. Muolaja 2 xil kondensator plastinka orqali bitta yoki turli xil sohalarga qo‘yiladi. Kichik kondensator plastinka faol ta’sirga ega bo‘lib, yallig‘lanish o‘chog‘iga issiqlik keng tarqaladi. Plastinka sohaga bo‘ylama, ko‘ndalang va burchak ostida qo‘yiladi. Plastinka ko‘ndalang qo‘yilganda UVCH hamma to‘qimalar bo‘ylab o‘tadi, uzunasiga qo‘yilsa, yuza ta’sir qiladi. Tana va plastinka orasida havoli bo‘shliq hosil bo‘lib, yuza to‘qimaga 0, 5-1 sm, chuqur to‘qimalarga 2-4 sm ta’sir qiladi.

## V. KEYSLAR BANKI

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**»– inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
-----------------	----------------------------

<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### Кейсни бажариш босқичлари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгилаш (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Зарарли моддалар ва заррачалар ажралиб чиқишини камайитириш тадбирлари вариантларини муҳокама қилиш (жуфтликлардаги иш).

## VI. GLOSSARIY

<b><i>Sanoat roboti (SR)</i></b>	ishlab chikarish jarayonida xarakat va boshkaruv funksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan bir nechta xarakatlanish darajasiga ega bo'lgan manipulyator ko'rinishdagi ijro kurilmasidan xamda kayta dasturlovchi dasturiy boshkaruv kurilmasidan tashkil topgan stssionar (ko'zgalmas) yuki ko'chma avtomatik mashina. Texnik adabiyutda bundan xam kiskarok ta'rif uchraydi:
<b><i>Sanoat roboti (SR)</i></b>	sanoatda ishlatishga mo'ljallangan kayta dasturlovchi avtomatik manipulyator.
<b><i>Sanoat robotining ijro kurilmasi</i></b>	robotning xarakat funksialarini bajaruvchi kurilma. Uning tarkibiga manipulyator (M) va boshkarish kurilmasi (BK) kiradi. Sanoat roboti manipulyatorning ishchi a'zosi (organi) – robotning tashki muxit bilan bevosita o'zaro alokasini amalga oshiruvchi kurilma bo'lib, odatda kiskichlash kurilmasi yoki ishchi asbobni bildiradi.
<b><i>SRning boshkarish kurilmasi</i></b>	<i>berilgan</i> programmaga ko'ra ijro kurilmasiga boshkaruvchi ta'sirlarni shakillantirish va chikarib berish uchun mo'ljallangan.
<b><i>SRning shlchov kurilmasi</i></b>	boshkarish kurilmasi uchun va robot va tashki muxit xolatlarga oid informatsiyasini amalga oshiradi
<b><i>Xizmat ko'rsatuvchi sanoat roboti</i></b>	yordamchi o'tish va transport operatsialarni bajaruvchi robotlardir. Masalan, yuo'klovchi, yuk tushiruvchi va transport robotlar.
<b><i>Operatsion SR</i></b>	texnologik operatsiyalar va ularning elementlarini, masalan, payvandlash, yig'ish, bo'yash va shunga o'xshash operatsiyalarni bajaruvchi robotdir.
<b><i>Ishlab chikarishni rivojlantirish</i></b>	robotlardan keng ko'lamda foydalanivchi yangi texnologiyalar, yangi jixozlarni yaratish xamda ishlab chikarishni tashkil kilish va boshkarish pritsiplarini ishlab chikarish .
<b><i>SRni dasturiy boshqarish</i></b>	sanoat robotining ijro qurilmasi hamda u bilan ishlayotgan texnologik jihoz ustidan avtomatik boshqarish.
<b><i>Ishchi fazo (atrof)</i></b>	SR ning ishlash jarayonida robot manipulyatori ishchi organi harakatda bo'la oladigan fazo. SR ishchi



	zonasining geometrik xarakteristikasi – robot ishchi zonasining chiziqli yoki burchak o‘lchovlari, kesim yuzasi yoki hajmi, yoki ularning birgalikda olingan to‘plami.
<b><i>SRning bazaviy koordinatalaralari sistemasi</i></b>	robot ishchi zonasining geometrik xarakteristikalari beriladigan koordinatalaralar sistemasi.
<b><i>SRning harakatchanlik darajasi soni</i></b>	SR manipulyator kinematik zanjirining erkinlik darajasi soni hamda robot harakat qurilmasining erkinlik darajasi soni bilan aniqlanadi.
<b><i>SRning nominal yuk ko‘tarish qobiliyati</i></b>	ishlab chiqarish predmeti yoki ishchi asbobning qisqichlab, ushlab turilishi kafolatlangan massasining eng katta qiymati bilan xarakterlanadi.
<b><i>Ishchi organining pozitsiyalashtirish xatoligi</i></b>	ishchi organ pozitsiyasining boshqarish programmasi tomonidan berilgan holatiga nisbatan chetlanishi.
<b><i>SRning pozitsiyalashtirilgan boshqarilishi</i></b>	robot ijro qurilmasining harakatini vaqt bo‘yicha ishchi fazo nuqtalarining oralarida nazorat qilmagan holda shu nuqtalarning tartiblangan chekli ketma – ketligi orqali programmalashtiruvchi programmaviy boshqarish turi.
<b><i>SRni siklli boshqarish</i></b>	nuqtalar ketma – ketligini rele turidagi harakat qurilmalari yordamida programmalashtiruvchi robotni pozitsion boshqarish turi (ost sinfi).
<b><i>SRni konturli boshqarish</i></b>	robotlarning sinalayotgan qurilmalari harakatini ishchi fazoda tezlik bo‘yicha uzluksiz nazorat qilgan holda trayektoriya shaklida programmalashtiruvchi boshqarishning programmaviy turi.
<b><i>SRni adaptiv boshqarish</i></b>	boshqarish algoritmini bevosita boshqarish jarayonida tashqi muhit va robot holatlari funksiyasiga bog‘liq holda o‘zgartirib turadigan boshqarish turi.
<b><i>SRlarini guruhlab boshqarish</i></b>	odatda PK asosida boshqarishning umumiy sistemasiga birlashtirilgan bir nechta robotlarni boshqarish jarayoni. SRLarni programmalash (dasturlash) – sanoat robotini boshqaruvchi programmani tuzish, uni boshqarish qurilmasiga kiritish hamda sozlash jarayonlari.

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Maxsus adabiyotlar:

1. Магруппов Т.М., Расулова С.С., Каххоров А.А. Современные микро-процессоры и их применение в медитсинских системах. Учеб. пособ., -Т. ТашГТУ. 2006.
2. I.I. Muqimdjanov, A.R. Xudayberganov, T. Usmonov Elektromeditcina texnikalarini o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish va tuzatish; - Toshkent : Abu Ali ibn Sino nom. tibbiyot nashr., 2004. - 184 b.
3. Magrupov T.M. . I.Usmonov Tibbiyot asboblari, qurilmalari, tizimlari va majmualari : o'quv qo'll; O'zR OO'MTV, TDTU. - Toshkent : TDTU, 2010.- 56 b.
4. Биотехнические системы: Теория и проектирование/ Ахутин В.М., Немирко А.Р., Pershin N.N., Pojarov A.V., Popchitalev E.P., Romanov S.V., Pod. red. V.M. Axutina. L.: Izd-vo LGU, 1981, -220 s.
5. Распознавание образов и медицинская диагностика/Под. ред. Ю.И. Неймарка. М.: Наука, 2005, -328 с.
6. Пеккер Я.С. Бразовский Б.С Компьютерные технологии в медико-биологических исследованиях. Сигналы биологического происхождения и медицинские изображения. Учебное пособие –Томск: Изд. ТПУ 2002

### II. Internet resurslari:

1. <http://www.engine.ru>.
2. <http://www.dvs-forever.ru>